

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

---

**O‘zbek adabiyoti kafedrası**

---

**O‘qituvchi Hamza Kamalovich Allambergenov**

**«NAVOIYSHUNOSLIK»**

**fani bo‘yicha ma‘ruzalar matni  
(bakalavr bosqichi talabalari uchun)**



**NUKUS - 2017**

# **1-MAVZU: KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI. NAVOIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI**

*”Umidim uldurki va xayolimga andoq kelurki, so‘zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a‘lo darajadan o‘zga yerni yoqtirmagay”.*  
(Alisher Navoiy)

## **Reja:**

1. Fanning maqsad va vazifalari
2. Shoir yashagan davr va adabiy muhit.
3. Navoiyning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va adabiy merosi.

## **1. Fanning maqsad va vazifalari**

Oliy o‘quv yurtining namunaviy o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladigan ishchi o‘quv rejasiga “Navoiyshunoslik” kursini kiritishdan bosh maqsad uzluksiz ta‘lim tizimini ta‘minlash, ya‘ni magistratura mutaxassisligi uchun asos, poydevor yaratishdan, talaba yoshlarni Navoiy ijodini adabiyotshunoslikda o‘rganilishi masalalari, bugungi kunda shoir ijodini o‘rganishdagi dolzarb vazifalarni belgilab olishdan iborat. Ana shuni inobatga olgan holda “Navoiyshunoslik” kursi ta‘limning bakalavriat yo‘nalishiga mo‘ljallangan. Unda o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligida ta‘lim olayotgan talabalarga Alisher Navoiy hayoti va ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi, uning taraqqiyot bosqichlari, o‘zbek navoiyshunos olimlari to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Asosiy e‘tibor esa Navoiy hayoti va ijodi to‘g‘risida yaratilgan monografiya, risola va ilmiy maqolalar, ularning tahlili orqali Navoiy hayoti va ijodini kengroq va chuqurroq o‘zlashtirish ko‘zda tutiladi.

## **2. Shoir yashagan davr va adabiy muhit.**

Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Amir Temur o‘g‘li Shohruh Mirzo davrida Hirotda dunyoga keladi. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin” – din-diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “Mir” – amir demakdir. Otasi

G'iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan, bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan, buvilari esa, temuriy shahzodalar enagasi bo'lishgan. Noyob qobiliyat egasi bo'lgan Alisher bola paytidanoq she'r va musiqaga havas qo'yadi. Adabiyot va san'at ixlosmandlari orasida o'sadi. Uch-to'rt yoshlarida o'z davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, hammani hayratga soladi. To'rt yoshida o'qishga borgan Alisher maktabda Husayn Boyqaro bilan birga saboq oladi.

1447- yilda Shohruh Mirzo vafotidan keyin temuriylarning toj-taxt talashi keskinlashgach, Alisherning oilasi Iroqqa ko'chib Taft shahrida yashay boshlaydi. U yerda mashhur tarixchi, "Zafarnoma" asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan tanishadi. 1451- yilda (yangi manbalarda 1452 yil) uning oilasi yana Hirotga qaytadi. Yetti-sakkiz yoshlaridan turkiy (o'zbekcha) tilda, ba'zan forscha she'rlar yoza boshlagan Alisher ikki tilda go'zal she'rlar bitgani uchun "zullisonayn" nomi bilan shuhrat qozonadi. O'zbek tilidagi she'rlariga "Navoiy" ("navo" – kuy, ohang), fors-tojik tilidagi she'rlariga "Foniy" ("fano" – yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi, o'tkinchi) taxalluslarini qo'llaydi.

1452- yilda Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga o'tiradi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavor hokimi etib tayinlanadi. Alisher Sa'diy She'roziyning "Guliston", "Bo'ston" asarlarini, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tyr" asarlarini o'qir va yod olardi. Attor asaridan ta'sirlangan Navoiy ko'p o'y suradigan, yolg'izlikni yoqtiradigan bo'lib qoladi. Bundan tashvishga tushgan ota-ona unga "Mantiq ut-tayr" mutolaasini man qiladilar. Ammo bu paytda Alisher butun kitobni yod olib ulgurgan edi. Alisher bundan tashqari, Xo'ja Yusuf Burhondan musiqa o'rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqalar bilan jiddiy shug'ulladi. Tog'alari Mir Sayid (Kobuliy) va Muhammad Ali (G'aribiy) ham qobiliyatli shoirlardan bo'lishgan. Navoiy o'zining keyinchalik yozgan "Majolis un-nafois" asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Mir Said – el orasida "Kobuliy" taxallusi bilan mashhurdir, faqirga tog'oyi bo'lur. Yaxshi tab'i bor erdi, turkchaga mayli ko'proq erdi. Bu tuyuq aningdurkim:

Ey muhiblar yetsangiz gar yozasiz,  
Gul adoqinda xumori yozasiz,  
Gar men o'lsam turbatimning toshig'a,  
Kushtai bir sho'x edi deb yozasiz.

Sulton Abu Said mirzo ilkida Saraxs qo'rg'onida shahid bo'ldi. Qabri shahrdadur.

Mavlono Ali – “G'aribiy taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg'a tog'oyi bo'lur erdi. Mir Said Kobuliyning inisidur. Xush muhovara va xush xulq va xush ta'b va dardmand yigit erdi. Bu turkcha matla aningdurkim:

Dardi holimdin agar g'ofil, agar ogoh esang,  
Hech g'amim yo'q gar menga sen dilbar-u dilxoh esang”.

Alisher o'n-o'n ikki yoshlarida keksa shoir Mirshohiy (1453- yil vafot etgan) bilan xat yozishadi. Lutfiy bilan tanishadi. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida tasvirlanishicha, mavlono bilan bo'lgan bir uchrashuvda u quyidagi:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'ach quyosh.

matla'li g'azalini o'qiganligini, hayratdan qotib qolgan Lutfiy shu bir g'azal uchun o'zining o'n-o'n ikki ming baytini, mumkin bo'lsa, almashishga tayyor ekanligini bildiradi.

1453- yilda otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etgach u Abulqosim Bobur qaramog'ida tarbiyalana boshlaydi. O'n besh yoshidan Husayn Boyqaro bilan Abulqosim Bobur saroyida xizmat qiladi. 1456- yilda Abulqosim Bobur bilan Mashhadga jo'nagan Alisher ham, Boyqaro ham o'sha yerda o'qishni davom ettirishadi.

1457- yilda, Abulqosim Bobur vafotidan keyin, Husayn Marvga borib taxtni qo'lga kiritish maqsadida kuch to'play boshlaydi. Mashhadga qolib o'qishni davom ettirayotgan Alisher bu yerda Sayyid Hasan Ardasher va shoir Kamol Turbatiy bilan tanishadi. Mantiq (logika), falsafa, riyoziyot (matematika) va boshqalar bilan jiddiy shug'ullanadi. Manbalarda aytilishicha, ijod og'ushiga kirib kelayotgan yosh Navoiyning, hattoki bir munosabat bilan ellik ming bayt – yuz ming misra she'r yod

olganligi qayd etiladi. Bu shunchaki nutq o‘stirish emas, balki tafakkur mashqi ham edi. O‘n sakkiz-o‘n to‘qqiz yoshlarida fors-tojik adabiyotining buyuk shoiri Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Shogird va ustoz munosabatlari bora-bora do‘stlik va hamkorlikka aylanadi. Navoiy uni “Nuran maxdum” deb e‘zozlaydi.

1459- yilda Xuroson taxtini egallagan Abusaid mirzo Xo‘ja Ahror bilan birgalikda ko‘p kishilarni qatl ettiradi. O‘z qarindoshlarini, Ulug‘bek oila a‘zolarini, bir qancha ilm-fan, adabiyot ahllarini, jumladan, Navoiyning tog‘alarini ham qatl ettiradi.

Navoiy 1464- yilda Hirotga qaytgan paytida uning ota mulki musodara qilingan, yashashga boshpana ham qolmagandi. Biroz fursat Abusaid saroyida xizmat qilgan Navoiy tez orada el boshiga kulfat yog‘dirayotgan, ilm-fan, adabiyot va san‘at ahllarini ta‘qib ostiga olgan bu hukmdordan g‘azablana boshlaydi. Keyinchalik Mashhaddagi do‘sti Sayyid Hasan Ardasheriga bag‘ishlab 256 misradan iborat masnaviy yo‘lida yozilgan she‘riy maktubida unga bo‘lgan mehrini, hurmatini izhor qilish bilan birga, Hirotidan jo‘nab ketayotganligining sabablarini: o‘sha davrdagi hayotning mashaqqatliliigi, Vatan va do‘stlarni tashlab ketish og‘irligi, Abusaidga qarshi noroziligi hamda o‘zida Firdavsiy “Shohnoma”ni o‘ttiz yilda, Nizomiy “Xamsa”ni yigirma yildan ziyod vaqt ichida yozgan bo‘lsa, u bunday asarni o‘ttiz oy ichida yozib tamomlashga qodir kuch-qudratni sezayotganligini uqtiradi:

Ani derga bo‘lsa qachon rag‘batim,  
Erur oncha haq lutfidin quvvatim,  
Ki har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,  
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘ttuz oy.

Keyinchalik Navoiy bu she‘riy maktubni “Masnaviy” nomi bilan “Xazoyin ulmaoniy”ning birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”ga kiritadi.

Abusaid mirzo Navoiyning o‘zidan norozi ekanligini bilardi. Chunki Navoiy Abulqosim Boburning yaqin odami, Boyqaroning maktabdoshi va do‘sti, tog‘alari esa, Abusaidga qarshi bosh ko‘targanlarni qo‘llab-quvvatlagan shoirlar edi. Shu sabab, Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur ta‘biri bilan aytganda, Hirotidan “ixroj” ya‘ni surgun qilinadi.

1465-1466- yillarda Navoiyning muxlislari uning muxammaslari va boshqa she'rlarini to'plab "Devon" tuzdilar. Bu devon bugun "Ilk devon" nomi bilan mashhur.

1466- yilda Samarqandga kelgan Alisher Navoiy bu yerda u dastlab moddiy qiyinchilikda yashadi. S'yngra Samarqand hokimi Ahmad Hojibek (shoir Vafoiy) homiyligida din huquqshunosi va faylasuf Fazlulloh Abullaysdan ta'lim oldi. Bu yerda Mirzo Hoji So'g'diy, Sayid Qutb Samarqandiy, Yusuf Safoiy, Shayxim Suxayliy kabi shoirlar atoqli olimlar, san'atkorlar ko'p edi. Ulardan Ulug'bek madrasasi mudarrisi Hoja Xurd, shoirlar: Uloyi Shoshiy, Yusufshoh Badiiy, Safoyi Andijoniy, Riyoziy, Javhariy, Xavofiy haqida Navoiy keyinchalik y'zining "Majolis un-nafois" asarida ancha ma'lumotlar beradi. Shoir Samarqandni "firdavsmonand" ("jannatmisol") deb ataydi va unga hech qachon "gardi fano" o'tirmasligini – zavollikka yuz tutmasligini istaydi.

1468- yil oxirida Eronni egallash uchun bo'lgan jangda Abusaid Mirzo halok bo'ladi. Mazkur voqeadan bir yil o'tgach Husayn Boyqaro Hirotni qo'lga oldi va Navoiyni o'z yoniga chaqirtirib oladi. 1469- yil aprelda Navoiy Husayn Boyqaroga bag'ishlab yozgan "Hiloliya" qasidasini uning Hirotda taxtga o'tirishi munosabati bilan taqdim etadi. Husaynning taxtga chiqishini "hilol" ya'ni yangi oyga qiyoslaydi.

Navoiy 1469-1472- yillarda muhrdor, 1472-1476- yillarda vazir, 1487-1488- yillarda Astrobod hokimi bo'lib ishladi. Navoiy tashabbusi bilan Hirotda Injil arig'i yoqasida "Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonaqosi, "Dorushshifo" (shifoxona), "Dorul xuffoz" (qorixona), "Masjidi jome'" qad ko'tardi. Tus viloyatidan 80 kilometrlik Chashmai gil suvi Mashhadga qazib keltirildi.

1472-1476- yillarda Husayn Boyqaro topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni – "Badoye ul-bidoya" ("Go'zallikning boshlanishi") devonini tuzadi. Devon 842 she'rdan tashkil topgan bo'lib: 585 g'azal, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarji'band, 49 qit'a, 78 ruboiy, 10 chiston, 52 muammo, 10 tuyuq va 46 farddan iborat. "Badoye ul- bidoya"ning XV asrga mansub nodir nusxalari Parij, London, Boku va Toshkentda saqlanadi.

1476-1483- yillarda ikkinchi rasmiy devoni “Navodir un-nihoya” (“Nodir tugallanish”) maydonga keldi. Mazkur devon 693 she’rdan tashkil topgan bo‘lib: 628 g‘azal, 3 mustazod, 3 tarji’band, 5 qit’a, 46 ruboiy, 1 lug‘z, 6 muammo, va 1 tuyuqdan iborat. “Navodir un-nihoya”ning yagona nusxasi ma’lum bo‘lib, u Toshkentda saqlanadi.

1481-1482- yillarda maktab, madrasalar, xonaqohlar uchun yig‘iladigan sarf-xarajatlarni tartibga solish haqidagi “Vaqfiya” asarini yozdi.

1483- yilda “Xamsa” (Nimadir deb atavorish kerak-oov)ni yoza boshlagan Navoiy uni 1485- yil boshlarida tugatadi. Navoiyshunos olimlarimiz fikricha, agar shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, turkiy tilda birinchi marta yaratilgan bu ulkan obida olti oyga bitkazilgan. Shoir uni Sulton Husaynga taqdim qilganida, taxtdan tushib kelgan shoh Navoiyga murid bo‘lishini aytib uni o‘ziga pir tutadi va tarixda misli ko‘rilmagan hodisa: unga jilovdorlik qiladi. “Xamsa” besh katta dostonidan iborat bo‘lib: “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor”, (“Yetti sayyora”) va “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) dostonlarini o‘z ichiga olgan.

1483- yilda falsafiy-ta’limiy, lirik-tavsifiy dostoni “Hayrat ul-abror” yoziladi. Doston aruzning sari’ bahrida yozilgan bo‘lib, 3988 bayt (7976 misra), 64 bobdan iborat: 21 bobi muqaddima, asosiy 40 bob (20 bobi maqolat, 20 bobi hikoya va masal) hamda 3 bob xotima qismlaridan iborat. Dostondagi ayrim aforistik jumlar bugungu kunda xalq maqollariga aylanib ketgan. Asar an’anaviy hamd (Ollohning madhi, sifatleri) va nat’ (payg‘ambarimiz madhi) bilan boshlangan. Navoiy fikricha, ilohiyot – Xudo butun borliqning yagona moyasidir. Insonning baxt-saodati uchun, uning kamoloti uchun kurash – dostonning asosiy yetakchi g‘oyasi. Zero, adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetovning ta’kidlaganidek: “Xamsa”ning boshidan oxirigacha insonni ulug‘lash, uning dardlariga achinish, xalq baxt-saodati uchun kurashish g‘oyasi yetakchilik qiladi.

1483- yilda yozilgan “Farhod va Shirin” dostoni sevgi va sadoqat, do‘stlik va oliyhimmatlilik, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik va qahramonlik dostonidir. “Mehnatnoma” deb ham yuritiladigan murakkab sujetli ushbu asarda Navoiy komil

inson haqidagi orzu-o'ylarini Farhod timsolida ifodalaydi. Dostonda Farhod (Chin xoqonining o'g'li), Shirin (Mehinbonuning jiyani), xoqon (Chin – Xitoy podshosi), Mulkoro (vazir) Moniy (naqqoshboshi, imorat ustasi), Qoran (tosh yo'nuvchi ustalar boshlig'i) olim Sulayho (donishmand), Shopur (rassomlik san'atini yaxshi egallagan, ko'p sayohatlar qilgan dono kishi, Farhodning do'sti), Mehinbonu (Arman mamlakatining podshosi) Xisrav (Eron podshosi), Buzurg Ummid (Xisravning vaziri), Sheruya (Xisravning o'g'li) va Bahrom (Farhodning ko'kaldoshi) obrazlari bir-biriga bog'langan va asar qiziqarliligini oshirishda shoir ushbu obrazlardan mohirona foydalana olgan. Doston kirish qism va 59 bob, 5782 baytdan iborat. Doston oxirida muallif shahzoda Shohg'aribga nasihat qiladi.

1484- yilda xalq afsonalari asosida eng g'amgin qissalardan biri “Layli va Majnun” dostoni yoziladi. Dostonda sadoqat bilan munofiqlik, nomus bilan orsizlik, mushfiqlik bilan zo'rvonlik, adolat bilan adolatsizlik, oliyjanoblik bilan qabohat o'rtasida kurash boradi. Doston 38 bobdan iborat b'lib asarda Qays (Majnun – samimiy oshiq, iste'dodli shoir va oliyjanob tabiatli inson) va Layli (vafodor yor, mazluma qiz) bosh qahramonlardir.

1484- yilda hikoya ichida hikoya usulida yozilgan 38 bob, 5000 baytdan iborat “Sab'ayi sayyor” (“Yetti sayyora”) ishqiy-sarguzasht dostoni yaratiladi. Asarda shoh Bahrom yetti iqlim shohi qurdirib bergan har bir qasrda bittadan jami yettita hikoya: shanba (Saturn – Kayvon) kuni qora qasrda hind go'zali bilan hindistonlik musofirdan saxiylik, oliyhimmatlilik va vafodorlikni kuylovchi Farrux va saxiy Axiy haqidagi hikoyani, yakshanba (Quyosh) kuni zarnigor, ya'ni sariq qasrda rumlik go'zal bilan rumlik musofirning qalloblik, ikkiyuzlamalik, mansabparastlikni qoralovchi Zayd Zahhob haqidagi hikoyasini, dushanba (Oy) kuni yashil qasrda shahrisabzlik go'zal bilan shahrisabzlik musofirdan mardlik, shijoatlilikni tarannum etuvchi Sa'd (“baxt”) haqidagi hikoyani, seshanba (Mars – Mirrix – Bahrom) kuni gulgun qasrda shafaq rang kiyim kiygan go'zal bilan saxiylik, adolat va do'stlikni ulug'lovchi Jo'na va Mas'ud haqidagi hikoyatni, chorshanba (Merkuriy – Atorud) kuni moviy (nilufar) qasrda nilufar libos kiygan go'zal bilan Mehr va Suhayl haqidagi hikoyatni, payshanba (Yupiter – Mushtariy) kuni sandal tusli qasrda sandal



libosli go‘zal bilan yaxshi va yomon sifatlarning oqibatlarini tog‘risida Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatni, juma (Venera – Zuhro) kuni oq qasrda, oq libosli go‘zal bilan xorazmlik musofirdan san‘at va uning ta‘sir kuchiga bag‘ishlangan Dilorom haqidagi hikoyatni eshitadi.

1485- yilda Navoiy “Xamsa”sidagi eng yirik oxirgi beshinchi doston – “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) yozib tugatiladi. Doston muqaddima, asosiy qism, xotimadan tashkil topgan 89 bob, 7215 baytdan iborat. Iskandar sarguzashlarining asosini uning tug‘ilishi, yoshlik yillari, ta‘lim-tarbiyasi, Faylaqus vafoti, taxtga chiqishi, Doro bilan to‘qnashuvi, Eronni egallab adolat o‘rnatishi, Kashmirga yurib zolim Malluni yengishi, Hind shohi va Chin hoqoni bilan do‘stona bitishuvi, Mag‘ribda vahshiylarga qarshi jang, Qirvon o‘lkasida ya‘juj va ma‘jujlarning yo‘lini to‘siq sad (to‘siq, devor) barpo etishi va dengiz sayohatlari kabi kurash va to‘qnashuvlar asosidagi bir-biridan qiziq bo‘lgan voqealar tashkil qiladi. Navoiy dostonida xalq og‘zaki ijodi, ta‘birlari va maqollaridan ham foydalanadi. Shuningdek, Arastu (Aristotel), Naqumojis (Nakimoxos, dostonida Arastuning otasi), Filotun – Aflotun (Platon), Suqrot (Sokrat), Asqalinus (Iskilinus), Buqrot (Gippokrat), Hurmus (Germes) kabi olimlar, Rum, Mag‘rib, Zangibor, Farang, Qrim, Andaluz, Misr, Iskandariya, Iroqi Ajam, Iroqi Arab, Shom, Halab, Makka, Fors, Xorazm, Dashti Qipchoq, Os, Rus, Charkas, Gurja, Farxor, Movarounnahr, Samarqand, Hirot, Sipohon, Ray, Murg‘ob, Rud, Gajrod, Marv, Chahcharon singari joy nomlarini ham uchratish mumkin. Eng asosiysi, Navoiy bu doston orqali o‘zi orzu qilgan adolatli shoh g‘oyasi ilgari suradi.

“Xamsa” dostonidan keyin Navoiy butun e‘tiborini ijodiy faoliyatga qaratgan xolda noyob ilmiy-adabiy, tarixiy asarlar yaratdi. Xususan, 1485- yilda diniy va axloqiy masalalarga doir 266 ta ruboiyni o‘z ichiga olgan “Nazm ul javohir” (“Gavharlar tizmasi”) asarini yozib tugatgan b‘lsa, 1485-1498- yillar davomida ibrat va pand-nasihati mazmunidagi tarixiy-biografik “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Anbiyolar va hakimlar tarixi”) asarini yaratdi.

1488- yilda ibrat va pand-nasihati mazmunidagi “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlik nuri”) xamda “Tarixi muluki Ajam” (“Eron mamlakatlari tarixi”),

ayrim manbalarda “Ajam – g‘ayriarab shohlari tarixi”. Bu asar “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Zubdat ut-tavorix” ya’ni “Tarixlar qaymog‘i” deb ham ataladi) asarlarini yaratadi.

1490- yilda Sayyid Hasan Ardasheriga bag‘ishlab memuar xotiralardan tashkil topgan “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”; 1491- yilda esa muammo janriga bag‘ishlangan fors tilidagi “Risolai muammo” (ikkinchi nomi “Mufradot”), hadislar asosidagi 40 ruboiyni o‘z ichiga olgan “Arbain” (“Chil hadis”), 266 ruboiydan tashkil topgan “Nazm ul-javohir” asarlarini yaratish barobarida mashhur hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asarini she’riy yʻsinda tarjima qiladi.

1491-1498- yillarda 1131 she’rni o‘z ichiga olgan (12000 misradan ortiq) forsiy she’rlardan tashkil topgan “Devoni Foniyy” asari yaratildi.

1491-1492- yillarda Navoiy o‘zbek tazkirachiligiga asos bo‘lgan “Majolis un-nafois” (“Go‘zal majlislar”)ni tuzadi. 1497-1498- yillarda esa asarda nomlari zikr etilgan shoirlar sonini 459 nafarga yetkazib, yangi adabiy fakt va she’riy parchalar kiritgan xolda mazkur asarning ikkinchi qayta ishlangan nusxasini yaratadi.

1492- yildan keyin aruz vazniga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”) asarini yaratadi.

1492-1494 yillarda memuar-xotiralarni o‘z ichiga olgan “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Besh hayrat”, do‘sti va ustoz Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan), “Holoti Pahlavon Muhammad” (Safo Matjonda 1496) nasriy asarlarini yaratadi.

149(1)2-1498 yillarda Navoiy butun umri davomida yozgan 16 lirik turga mansub 50000 misradan ortiq qariyb barcha o‘zbekcha she’rlarini jamlab to‘rtta devondan iborat “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) asarini yaratadi. “Chor devon” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu kulliyot turkiy tildagi 4 devondan iborat: 1. “G‘aroyib us-sig‘ar” (“Yoshlik ajoyibotlari”) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davri. Umrning navbahori deb hisoblangan. 2. “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”). 20 yoshdan 35 yoshgacha. Umrining yoz fasli deb hisoblangan. 3. “Badoye’ ul-vasat” (“O‘rta yosh go‘zalliklari”) 35 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan davri. Umrning kuzi fasli deb hisoblangan. 4. “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik

foydalari”) 45 yoshdan 60 yoshgacha boʻlgan davr. Umrning qishi fasli deb hisoblangan.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlarning har biriga baravar – 650 tadan gʻazal kiritilgan. Bu kulliyotdagi sheʼrlarning umumiy hajmi 22450,5 bayt yoki 44901 misradan iboratdir<sup>1</sup>. Shuningdek, devonda 52 ta muammo, 4 ta mustazod, 10 ta muxammas, 5 ta musaddas, 1 ta musamman, 4 ta tarjiʼband, 1 ta tarkibband, 1 ta masnaviy, 1 ta qasida, 1 ta soqiynoma, 210 ta qitʼa, 133 ta ruboiy, 10 ta chiston, 13 ta tuyuq va 86 ta fard jami 3132 ta sheʼr mavjud.

Adabiyotshunos olim Natan Mallayev maʼlumotiga qaraganda, toʻrtala devonning hajmi bir-biridan katta farq qilmaydi: birinchi devonda – 840 sheʼr (11437 misra), ikkinchisi – 759 sheʼr (10847 misra), uchinchi – 740 sheʼr (10840 misra) va toʻrtinchida – 793 sheʼr (11776 misra) bor. Devonlardagi sheʼrlarning janriga qarab taqsimlanishida ham maʼlum tartib va miqdorga rioya qilingan. “Gʻaroyib ussigʻar”ga va “Navodir ush-shabob”ga 8 janrdagi, “Badoyeʼ ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar”ga 9 janrdagi sheʼrlar kiritilgan<sup>2</sup>.

1495-1496 yilda Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” (“Mahabbat shabadalari”) tazkirasini yaratdi. 750 ta mutasavvuf shayx haqida maʼlumot berilgan ushbu tazkira adabiyotshunoslikda Jomiyning “Nafohat ul-uns” (“Doʻstlik tarovati”) kitobining erkin tarjimai sifatida qayd etib kelinmoqda.

1498-1499 yilda Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”iga javoban “Lison ut-tayr” (“Qush tili”) falsafiy dostonini yaratadi. 176 ta kichik boblardan tashkil topgan uchbu dostonni “Muqaddima”, Semurgʻ taʼrifi, Semurgʻni izlash yoʻlida, Vodiylar taʼrif-tavsifi, Munojotlar qismi va “Xotima”ga ajratish mumkin. Navoiy dostonida majoziy obrazlar orqali borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi. Asardagi 63 hikoyadan 12 tasi “Mantiq ut-tayr”dan, qolganlari xalq ogʻzaki ijodidan, baʼzilari “Qurʼon”, “Hadis”, “Tazkirat ul-avliyo” va boshqa diniy kitoblardan, ayrimlari bevosita shoirning oʻz hayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan. Asarda Hudhud (shayx yoki murshid) boshliq qushlar (kishilar) Semurgʻ (Xudo yoki komil, eng oliy

---

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – T.: Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. 13- bet.

<sup>2</sup> Mallayev N.M. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: “Oʻrta va oliy maktab” davlat nashriyoti. 1963. 435- bet.

borliq)ni izlaydi va yetti bosqichdan o'tadi: talab vodiysi, ishq vodiysi, ma'rifat vodiysi, istisno vodiysi, tavahhud vodiysi, hayrat vodiysi va faqru fano vodiysi. Qushlar ko'p qiyinchiliklarni yengadilar, ayrimlari yo'lda qolib ketadi, halok bo'ladi va oxirida o'ttiz qush qoladi. Nihoyat, ular o'zlarining Semurg' – 30 qush ekanligini sezib, izlashdan to'xtaydilar. Navoiy "Lison ut-tayr"da tabiat va ilohiyot haqidagi qarashlariga yakun yasaydi. Insonni sevish, va uning baxt-saodati uchun kurash g'oyasini ilgari suradi.

1498-1499 yillarda shoh va shoirlarga yo'llangan maktublardan tashkil topgan "Munshaot" ("Xatlar") asarini yaratadi. Ushbu asar janriga ko'ra xilma-xil 88 ta xatni o'z ichiga olgan.

1498-1499 yillarda tilshunoslikka doir "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til haqida muhokama") asarini yaratadi.

1500- yilda Navoiy nasriy yo'nalishda bitilgan falsafiy va axloqiy-ta'limiy "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") asarini yaratadi. Ushbu asar shoirning eng so'nggi asari edi. "Navoiy bu asarida hayotdan olgan tajribalariga, taassurotlariga, o'zining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlariga yakun yasash, turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarni tasnif va ta'rif qilib, ularning burchi hamda vazifalarini yoritish, ayrimlarining faoliyati, xatti-harakati va xulq-atvoridagi illatlarni fosh etish, ularni yaxshilikka yo'llash maqsadini o'z oldiga qo'yadi"<sup>3</sup>. "Mahbub ul-qulub" tuzilishiga ko'ra uch qismga bo'lingan bo'lib, birinchi "Ijtimoiy tabaqalar" qismi 40 fasl (bob)dan iborat, unda podsho va amaldorlar, qo'shin, din, shariat va tasavvuf ahllari, savdogarlar va olibsotarlar, dehqonlar, ilm-ma'rifat, san'at va adabiyot ahllari, mudarrislar, kotiblar, tabiblar, musiqa va qo'shiq, ayollar, qushchi va sayyodlar, tilanchilar, bezorilar, mayxo'rlar va boshqalar ta'rif-tavsif etiladi. Ikkinchi "Axloq-odatlar" qismi 10 fasl (bob)dan iborat bo'lib, tavba, zuhd, tavakkal, qanoat, sabr, tavoze va odob, shariat, nazar solish, rizo va ishq haqida. Uchinchi qism pand-hikmatlardan tashkil topgan.

"Mahbub ul-qulub"ning ilm-fanda ma'lum qo'lyozma nusxalaridan uchtasi XVI asrga, qolganlari XVII-XIX asrlarga mansub. 1565-1566 yillarda ko'chirilgan

---

<sup>3</sup> Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – T.: "O'rta va oliy maktab" davlat nashriyoti. 1963. 579- bet.

nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko‘chirilgan mukammal nusxasi Moskva Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, 1595-1596- yillarda ko‘chirilgan nusxasi Leningradda saqlanadi. Ushbu asar Toshkentda 1939- yilda nashr etildi.

Alisher Navoiy shogirdlaridan hisoblangan Xondamir o‘zining unga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob sifatlar”) asari xotimasida buyuk shoir hayotining so‘nggi kunlarini ham bayon qilgan.

1500- yilning dekabr oyi oxirlarida Husayn Boyqaro Astroboddan harbiy safardan qaytadi. Saroyning e‘tiborli kishilari qatori Sulton Husaynni kutib olgani yo‘lga chiqqan Navoiy Hirotidan chiqib Qavsiya qishlog‘iga keladi. Raboti pariyon degan mavzuda tunab qolgan shoir ertalab Rabot binosi devorlaridagi naqshlangan yozuvlarni ko‘zdan kechiradi va otlanib yo‘lga chiqib turadi. Kechga yaqin shohning maxsus chopari bo‘lmish Mavlono Vays kelib, tunda sultonning yetib kelishini xabar qiladi. Sulton Husayn istiqboliga oshiqib, bir farsah (eskicha hisobda bir tosh; sakkiz chaqirim, yangicha hisobda taxminan 6 kilometrga teng bo‘lgan masofa<sup>4</sup>)ga yaqin yurganda shohning taxtiravoni ko‘rinadi, – deb yozadi bu voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Xondamir. – Anchadan buyon bemorligi va bosilgan ko‘p yo‘l natijasida Alisherning ahvoli juda zaiflashadi. Amir Xoja Shahobiddin Abdulloni yoniga chaqirib: “Meni saqlashdan g‘ofil bo‘lmang, ahvolim o‘zgarib qoldi”, deydi. Shu on shohning qo‘lini o‘pmoq uchun otdan tushadi. To‘satdan yetishgan kasallikning og‘irligi va madori qolmaganidan mazkur Amir va mavlono Jaloliddin Qosim qo‘ltiqlariga kirib Navoiyni podshoh quchog‘iga qo‘yadi. Alisher ahvalidagi o‘zgarishni ko‘rib, a‘lo hazrat g‘oyat g‘amgin va qayguda bo‘ladi. Shu on bu kasal saktaga aylanib, Alisherda harakat qilish va so‘zlashga majol qolmaydi. Uni darhol podsho taxtiravonida Hirotga olib keladilar. Tabiblar qon olmoqqa qaror qiladilar, foydasi bo‘lmaydi. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501- yilning 3-yanvarida vafot etadi. Butun xalq – shohdan gadogacha, olimdan cho‘pongacha,

---

<sup>4</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. To‘rtinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2008. 332- bet.

shoirdan dehqongacha ulugʻ farzandining oʻlimiga qaygʻu va iztirob bilan motam tutadilar.

### **3. Navoiyning oʻzbek adabiyoti taraqqiyotidagi oʻrni va adabiy merosi.**

Navoiy jahondagi eng sermahsul ijodkorlar sirasiga kiradi. 100000 baytdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati xazinasiga bebaho hissa boʻlib qoʻshildi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shoirning epik asari "Xamsa", toʻrt lirik devonni oʻz ichiga oluvchi "Xazoyin-ul maoniy" asari, falsafiy dostoni "Lison-ut tayr", tarixga oid "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", adabiyotshunoslikka oid "Mezon -ul avzon", "Majolis-un nabois", tilshunoslikka oid "Muhokamat-ul lugʻatayn", axloqiy-falsaviy asari "Mahbub-ul qulub, tasavvuf tarixiga oid "Nasoyim-ul muhabbat", ruboiylar majmuasi "Nazmul javohir", diniy mavzudagi "Arbain", "Siroj-ul muslimin", xotiralari "Xamsatul mutahhayirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", maktublar toʻplami "Munshaot", vaqf ishlari haqida "Vaqfiya" va boshqa bir qator asarlari xalqimizning maʼnaviy-madaniy mulki boʻlib qolmoqda.

Bugungi kunda Oʻz FA Til va adabiyot instituti ulugʻ shoir nomi bilan ataladi. Oʻzbek tili rasmiy davlat maqomiga ega. Mustaqil Oʻzbekiston jahon hamjamiyatining faol aʼzolaridan biri. Shubhasiz, ona Vatanimiz shuhratini yanada oshirishda Alisher Navoiyning umrboqiy asarlari oʻz hissasini qoʻshishda davom etaveradi.

#### **Nazorat savollari:**

1. "Xazoyin ul-maoniy"ga gʻazallardan tashqari yana qanday janrdagi asarlar kiritilgan?
2. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"da keltirilgan ruboiylari qaysi devoniga kiritilgan?
3. "Xazoyin ul-maoniy"dagi qitʼalarning xususiyatlari nimadan iborat?
4. Alisher Navoiyning ruboiy va qitʼalari yana qaysi asarlarida uchraydi?
5. "Xazoyin ul-maoniy" devoni qaysi gʻazal bilan boshlanadi va u avval qaysi devonga keltirilgan edi?

6. “Ashraqtat” so‘zi bilan boshlanadigan g‘azalning mavzusi nima?
7. Tasavvufiy mavzudagi bu asar qanday janrda ifoda etilgan va uning farqi nimalarda ko‘rinadi?
8. “Xazoyin ul-maoniy”dagi g‘azallardan yana qaysilari tasavvufiy mavzuga bag‘ishlangan?
9. G‘azal janri takomilida Navoiy amalga oshirgan ishlar?
10. Qaysi lirik janrlarni shoir o‘zbek she‘riyatiga tatbiq etdi?
11. Alisher Navoiy nima uchun o‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi hisoblanadi?
12. Shoir tarjimai holiga oid qanday ma’lumotlarni bilasiz?
13. Navoiy qanday tarixiy sharoitda yashab ijod etdi?
14. Shoir ijodiy faoliyatda kimlarga ergashdi?
15. Navoiy qalamiga mansub asarlarni sanang.
16. Ulug‘ shoir amalga oshirgan madaniy-ma’rifiy ishlar ko‘lamini tavsiflang.
17. Navoiygacha turkiy adabiyot qanday ahvolda edi?
18. Husayin Boyqaro Navoiyni «So‘z mulkining sohibqironi» deya ulug‘lashining sabablari nimada?
19. A. Navoiy o‘zi orzu qilgan qanday asarlarni yaratishga ulgurmad?
20. O‘zbek mumtoz adabiyotida jahonshumul asarlar paydo bo‘lishi hamda o‘zbek tili kamsitilishining bartaraf etilishida Navoiy xizmatlarini asoslang.

### **Adabiyotlar:**

1. A. Abdug‘afurov. Misralar jozibasi. “Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari” (maqolalar to‘plami). Toshkent, “Fan”, 1993, 26-51 – betlar.
2. A. Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1993.
3. Abdug‘afurov A. Navoiy satirasi. T., 1966
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami, 14-tom.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 3-6 – tomlar.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 1-6 – tomlar.
7. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. T., 1959
8. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. T., 1961

9. Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, “Cho‘lpon”, 1991
  10. Ibrohimova A. XVI asr o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. T., 1976
  11. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. T., 1983
  12. Jaloliddin Balxiy-Rumi. Masnaviyi ma’navi. “Farhang”, 1991, № 8.
  13. Mallaev N. O‘zbek dabiyyoti tarixi. T., 1976 y
  14. N.Jumayev. G‘azalda g‘oya va badiiy mahorat mutanosibli. Maqolalar to‘plami, 51-67 – betlar.
  15. N.Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 1994.
  16. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. T., 1972 y
  17. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. T., 1976y
  18. Oybek. Navoiy gulshani
- R.Vohidov. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994.



## 2-MAVZU: XALQ OG‘ZAKI IJODIDA NAVOIY TIMSOLI

### REJA:

1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Navoiy timsoli.
2. Turkman xalq og‘zaki ijodida Navoiy timsoli.
3. Tojik xalq og‘zaki ijodida Navoiy timsoli.

*Bu gulshan ichra yo‘qtur baqo guliga sabot ,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik birla ot.  
(Alisher Navoiy)*

Ulug‘ kishilar haqida rivoyat va hikoyat yaratish qadimdan odat bo‘lib kelgan. Turli zamonlarda yashagan davlat arboblari, sarkardalar, donishmandlar, olimlar, fozillar, shoirlar va san‘atkorlar haqida xilma-xil rivoyat va hikoyatlar vujudga kelgan. Rivoyat va hikoyatda ulug‘ kishilarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muhim voqea-hodisalar bayon etiladi, ularning shaxsiy sifat, xislat va fazilatlari ta‘rif-tavsif qilinadi. Real voqelik zaminida vujudga kelgan rivoyat va hikoyatda tarixiy haqiqat fantaziya va ijodiy to‘qima bilan birgalikda yo‘g‘riladi. Ba‘zan fantaziya va ijodiy to‘qima tarixiy haqiqatni bo‘rttiribroq tasvirlashga xizmat etsa, ba‘zan tarixiy haqiqatni buzib ham qo‘yadi. Bunday hollarda tarixiy shaxs real zamindan yiroqlashadi, adolatsiz hukmdorlar adolatli, vijdotsiz davlat arboblari insofli, xasis davlatmandlar saxovatli, johil din ulamolari ma‘rifatli qilib tasvirlanadi, olim va fozil kishilar nodon va xudbinlarga aylanib qoladi va hokazo. Binobarin, tarixda o‘tgan arboblari haqida fikr yuritganda rivoyat va hikoyatlar yoki boshqa janrdagi asarlarning o‘zi bilan cheklanib bo‘lmaydi, ularni tarixiy manbalarga, faktlarga solishtirib o‘rganish asosidagina dadil so‘zlash, hukm chiqarish mumkin. Agar rivoyat va hikoyat tarixiy haqiqatga muvofiq bo‘lsa, tarixiy haqiqat mantiqiga mos kelsa, qimmatli manbaga aylanadi, tarixning yozilmay qolgan sahifalarini to‘ldiradi.

Navoiyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda xalq og‘zaki ijodida Navoiy haqida yaratilgan asarlar ham ahamiyatlidir. Navoiy haqida o‘zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning og‘zaki ijodida ko‘pgina ertak va hikoyalar yaratilgan. Bu ertak va hikoyalarda tarixiy faktlar aynan bayon qilinmasa ham, ularda xalq

tushunchasidagi Navoiy obrazi yaratilgan. Navoiyni samimiy sevgan va uning asarlarini ardoqlagan xalq uni doimo ulug' bir inson, donishmand va tadbirli davlat arbobi, iste'dodli olim, zakovatli shoir, beva-bechoralarning manfaatlarini himoya qilgan xalq farzandi, olijanob, saxiy va mushfiq bir kishi sifatida tasavvur qilgan. Xalq shu asosda Navoiy obrazini yaratgan, xilma-xil asarlar ijod etgan, Navoiy xalq qahramoniga aylanib ketgan. Agar ko'pchilik yozma manbalarda Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stlik aloqalari hatto tilga olinmagan bo'lsa, xalq ijodida Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi ixtiloflar asosiy masalalardan biri qilib olingan. Bu, bir tomondan, Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi ziddiyatlarni ma'lum darajada tarixiy haqiqatga muvofiq ravishda aks ettirsa, ikkinchi tomondan, bu ixtiloflar aspektida umuman feodal jamiyatdagi progressiv kishilar bilan reaksiyon kishilar o'rtasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi.

### **O'zbek xalq og'zaki ijodida Navoiy timsoli.**

Ulug' shoir o'zining sermazmun hayoti va ijodi, tahsinga loyiq insoniy fazilatlarini, xalqparvarligi bilan hayotlik chog'idayoq xalqning muhabbatiga sazovor bo'lgan edi. Xalq shoirga atab ko'plab asarlar, latifalar, afsonalar yaratgan, bu hol shoirning vafotidan keyin ham davom etgan. Ana shu tarzda buyuk alloma xalqning ideal qahramonlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Sharqda Alisher Navoiychalik xalq qalbidan chuqur joy olgan buyuk siymo bo'lmasa kerak. Zero uning asarlari eldan-elga tarqalib, u haqida ko'plab afsonalar to'qilgan. Xalqning Navoiyga bo'lgan bu qadar qiziqishining sababi bor, albatta. Navoiy buyuk shoir bo'lish bilan bir qatorda, xalqning baxt-saodati, farovon turmushi, kelajagi uchun kurashgan, umrini va ijodini unga baxshida etgan, eli va yurti uchun yashab ijod qilgan haqiqiy xalqparvar inson.

Xalq Navoiy siymosida o'zining orzu-istaklarini amalga oshiruvchi, og'ir kunlarda yordam qo'lini cho'zguvchi, uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilguvchi ko'makdosh va g'amxo'rini Navoiy boshqa ulug' zotlar singari butun hayoti davomida haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. U o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol

qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj, kambag'al va beva-bechoralarni o'z himoyasiga oldi, o'zining donishmandligi bilan barchani lol qoldirdi. Vazirlik faoliyati davrida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, barchaning manfaatiga birdek xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish oldingi o'ringa chiqa boshladi.

Xondamirning qayd qilishicha, 1480 yillar davomida Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'priq, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan va ta'mirlattirgan. Shuningdek, u adabiyot va san'atning homiysi sifatida ham maydonga chiqdi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, afsonalarda shoirning shaxsiga oid tarixiy haqiqat o'rnini ko'proq og'zaki ijodga xos xayolot, to'qima va mubolag'a egallagan. Xalq o'zining og'zaki poetik ijodi an'analaridan kelib chiqib, shoirga nisbatan g'oyatda balandparvoz sifatlar, o'xshatishlar va mubolag'alar qo'llaydi. Afsonalarning ayrimlarida ulug' shoir quvnoq, uddaburon, hazilkash ham qilib tasvirlangan. Bu, albatta xalqning o'z shoiriga bo'lgan beqiyos muhabbati ifodasidir.

Mana besh asrdan oshibdiki, buyuk shoir xalq og'zida tildan tiliga ko'chib yuradi. U suyumli erka farzand, ona xalqining muhabbatini emib, abadiy yashaydi. Uning umri ham xalqining umri singari boqiydir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida Navoiy haqidagi kitobiy hikoya va latifalarni XV-XVI asrlar adabiyotidagi hikoya va latifalarsiz, shu janrga xos bo'lgan xususiyatlarsiz to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Kichik hikoya yoki latifa Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan va xiyla ommabop bo'lgan janrlardan. Lekin har ikki holatda ham hayotiylik, turmush tajribasi, o'git, pand-nasihathikoyaning asosini tashkil etgan. Bunday asarlar odatan hajm jihatidan mo'jaz bo'lib, ularga hazil-mutoyiba, askiya va chandish, badeha va hozirjavoblik xususiyatlari xosdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodidagi "Navoiy va yigit", "Navoiy va qirq vazir", "Navoiy va Guli" kabi hikoyalar va boshqalar Navoiyning o'lmas obrazini to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Ijodkor xalq Alisher Navoiyni beqiyos darajada sevgan. Shular uchun ham uning o'lmis siymosini og'zaki ijodida, ko'p sonli afsonalarda yaratib qoldirgan. Biroq Navoiy yashagan davrda ham, undan keyin ham Alisher Navoiy haqidagi yaratilgan asarlarni yozib olish va to'plash odat bo'lmagan. Alisher Navoiy haqidagi afsonalarni to'plash va ommalashtirish faqat 1923-yillarda boshlandi. Bu sohada A.A.Semyonov, E.E Bertel's, I.Ogaliev, S.Abdulla, Berdi Qorboboev, M.Afzalovlar va boshqalar katta xizmat qildilar. Ulug' shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan nashr ettirilgan «Dono Alisher» to'plami bu sohada qilingan ishlarning eng qimmatlisidir.

Alisher Navoiy to'g'risida yaratilgan **afsonalarda** Alisher Navoiy obrazi tarixiy qiyofada emas, balki xalq himoyachisi, xalq orzu-umidlarining ifodachisi sifatida gavdalanadi. Bunday afsonalarda Alisher Navoiy iste'dodli shoir, tadbirli davlat arbobi, dono, najotkor, oliyhimmat bir shaxs, zulmga, adolatsizlikka qarshi kurashgan xalq farzandi sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy obrazi o'zbeklar orasidagina emas, balki turkman, tojik va qirg'izlar o'rtasida ham tarqalgan, «Navoiy bilan cho'pon», «Mir Alisher», «Sulton Husayn», «Podshodan dod», «Nima uchun», «Ziyod botir», «Olijanob inson» kabi o'nlab asarlarda Navoiy obrazi namoyon bo'ladi.

Chunonchi, «**Navoiy bilan cho'pon**» **afsonasida** otasidan qolgan qo'ylarning ko'paytirib 700 ga yetgani, ikki yuzini cho'ponga mehnat haqi uchun qoldirib, 500 qo'yni bozorga haydashi, pulini podsho o'lganida berasizlar deb xaridorlarga bepul tarqatib yuborgani bayon etiladi. G'azablangan podshoga Navoiy: «Qo'yni olib kelgan odamlar: «Ishqilib podshohimiz o'lmasin. Podsho o'lsa Navoiy pulini qistaydi, deb sizni duo qilib yurishadi» deb donolik bilan javob beradi.

Tarixiy faktlardan ma'lumki, Navoiy oila qurmagan. Lekin ijodkor xalq ulug' shoir hayotining ana shu tomonlarini ham o'z fantaziyasi bilan to'ldiradi. Navoiy haqida va uning sevgilisi Guli to'g'risida o'nlab afsonalar yaratdi. Afsonalarning ko'pchiligida hikoya qilinishicha, Navoiyning dushmanlari Guli va Navoiy o'rtasidagi sevgiga to'g'anoq bo'ladilar. Navoiyning dushmanlari undan qasos olish maqsadida Gulini saroyga, Husayn Boyqaro haramiga keltiradilar. Navoiy qattiq qayg'uradi. Guli zahar ichib o'ladi. Navoiy umrining oxirigacha Guli muhabbatiga sodiq qoladi. Yana bir qator afsonalarda Navoiy Husayn Boyqaroga qarama-qarshi

qo'yiladi. Bunday afsonalarda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari bir tarzda tasvirlanmaydi. Ba'zi afsonalarda (masalan, «Pullar qayoqqa ketayapti», «Menda ham shuncha», «Kim avval ko'rdi» va boshqalarda) Sulton Husayn, asosan, ijobiy qiyofada berilsa, yana bir xil afsonalarda (masalan, «Ot nimadan kuldi», «Kim tentak», «Biz odam emasmi» va boshqalar) Sulton Husayn Navoiyga nisbatan birmuncha go'lroq va kaltafahmroq kishi sifatida gavdalanadi.<sup>5</sup> Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki asarlarida Alisher Navoiy obrazi muhabbat bilan yaratiladi. Ularda mubolag'a, badiiy fantaziya bor. Alisher Navoiy to'g'risidagi xalq afsonalari tarixiy hujjat emas, balki ularda xalqning orzu istagi, maqsad-intilishlari, fantaziyasi yetakchidir. Shu bilan birga, xalq afsonalarida Alisher Navoiy obrazi shu darajada demokratlashtiriladiki, u dehqon, mardikor, bog'bon, kosib va shu kabi toifadagi kishilar sifatida tasvirlanadi. Bunday asarlarda Alisher Navoiy o'z hozirjavoblighi, yumori, o'tkir so'zi bilan afandiga (tojiklarning Mushfiqiysi va turkmanlarning Kaminasiga) o'xshab ketadi.

Biz quyida "O'zbek xalq ertaklari" (III jildlik) kitobidan "Navoiy bilan mardikor" ertagini keltirmoqdamiz:

#### Navoiy bilan mardikor

Bir o'spirin yigin mardikorlik bilan kun kechirar edi. U yurgan yo'lida odamlar o'rtasida bo'lgan janjallarni bostirib, birovning aravasi loyga tiqilib qolsa, "hay-hay"lashib chiqarishib, xalqqa yordami egib yurar edi. Bu yigitdagi xislatni ko'rgan Navoiy uni hurmatlab, qachon ko'rsa, undan oldin salom berib o'tar edi. Yigit Navoiyning bu hurmatiga ajablanib:

"Men erta-yu kech odamlarning janjallarini bostirib, loyga botgan aravalarni chiqarishib yursam, umrmda nomoiz o'qimasam, ro'za tutmasam ham Navoiy meni bunchalik hurmat qiladi. Bu yurishimdan foyda yo'q. Bola-chaqam bo'lmasa, menga dunyoning nima keragi bor" deb, "pirga qo'l berib" bir jilovxonada erta-yu kech hech kim bilan ishi bo'lmay toat-ibodat qilib o'tiradigan bo'ldi.

---

<sup>5</sup> Alisher Navoiy haqidagi afsonalar va ularning atroflicha tahlili. E.E.Bertelsning «Navoiy» va N.Mallaevning «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» kitoblari

Bir kuni yigit jilovxonada tasbeh o‘g‘irib o‘tirgan edi, Navoiy bir yigit bilan gaplashib jilovxona oldidan o‘tib qoldi. Jilovxonadagi yigit: “Navoiy juda karomatli odam ekan, namozxon bo‘lib, toat-ibodat qilishimni avvaldan bilib, meni hurmat qilar ekan”, – deb o‘rnidan turib, ta‘zim bilan salom berdi. Navoiy salomiga alik olish uyoqda tursin, uning aftiga ham qaramay o‘tib ketdi. Jilovxonadagi yigit: Navoiy yonidagi yigitning gapiga berilib, meni payqamay qolgan bo‘lsa kerak”, - deb o‘ziga tasalli berdi. Oradan uch-to‘rt kun o‘tar-o‘tmas, Navoiy yana o‘sha yigit bilan gaplashib kelaverdi. Jilovxonadagi yigit o‘rnidan turib salom berdi. Navoiy yana indamay o‘tib ketdi. Yigit hayron bo‘lib, Navoiydan: “Taqsir, bir umr peshonam sajdaga tegmay, baqirib-chaqirib yurganimda salom berib o‘tar edingiz. Endi men erta-yu kech toat-ibodat qilib o‘tirib sizga salom bersam, alik olmaysiz. Buning sababi nima?” – deb so‘radi. Shunda Navoiy: “Sen o‘sha baqirib-chaqirib yurganingda xalqqa foydang tegib yurar edi, endi bo‘lsa ertalabki nonushtang bilan kechqurungi ovqating g‘amida ertadan-kechgacha xalqqa ko‘z tikib o‘tirasan. Salomingga alik olmasligimning sababi shu”, - dedi.

Navoiyning u so‘zlari yigitga qattiq ta‘sir etib, u yana o‘zining avvalgi ishini davom ettiradigan bo‘ldi.

### **Turkman xalq og‘zaki ijodida Navoiy timsoli.**

*Ko‘ngul bermish so‘zimga turk jon ham,*

*Ne yolg‘iz turk, balkim turkmon ham<sup>6</sup> –*

deb yozgan edi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o‘z asarlarining turkiy va turkiy bo‘lmagan xalqlar, shu jumladan, turkmanlar orasida ham ommalashganligidan mamnun bo‘lib.

Navoiyning asarlari turkman baxshilari, sozanda va xonandalari orqali xalq o‘rtasida keng tarqalib qalblarga singib ketgan, gumanistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan she‘riyati, hayotbaxsh poetik merosi turkman shoirlarining diqqatini jalb etgan, hurmatini qozongan. Ma‘lumki, turkman folklorida Alisher Navoiy haqida Mirali nomi bilan bog‘liq bir turkum rivoyatlar yaratilgan. Atoqli turkman yozuvchisi Berdi

---

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. Asarlar . O‘n besh jildlik. 7- jild. Toshkent 1964., 414 - bet.

Kerboboyev o'z vaqtida bu xalq hikoyatlarini to'plab nashr ettirgan. Bu xayrli ishni turkman adabiyoti tarixining mohir tadqiqotchisi, professor M.Ko'sayev, taniqli folklorshunos P.Og'aliyevlar ham davom ettirib, Mirali turkman hikoyalarini xalqdan yozib olganlar va nashr qildirish ishlari bilan shug'illanganlar. Mirali nomi bilan bog'liq bo'lgan xalq rivoyatlarining bir qismi o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, «Turkman yumorlari» (1963) nomi bilan alohida kitob shaklida bosildi. Nazarimizda, endigi vazifa turkman va o'zbek xalqi o'rtasidagi azaliy do'stlik va ijodiy hamkorlikning simvoli turkman folklorida yaratilgan xalqning sevimli qahramonlariga aylangan Mirali obrazini tadqiq etishda. To'g'ri, bu masala turkman adabiyotshunosligida maxsus tadqiqod obyekti bo'lgan. Adabiyotshunos K.Bo'rjaqova bu mavzuni o'rganib kandidatlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilgan, qator maqolalar bostirgan. Ayni chog'da, bu mavzuning bir qirradi o'zbek adabiyotshunosligiga ham tegishli ekanligini unutmasligimiz lozim.

Alisher Navoiyning nomi va asarlari turkman xalqi orasida uzoq vaqtlardan beri ma'lum va mashhurdir. Buning bir qancha sabablari bor, albatta. Shoir, eng avvalo o'z ijodi, o'lmas asarlari bilan turkman xalqi qalbiga kirib borgan, uning dilidan mustahkam joy olgan. Navoiyning yuksak gumanistik g'oyalar, ma'rifatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan g'azallari, dostonlari, nafaqat shoirlar, savodxon kishilar qalbini sehrlagan, ayni chog'da, oddiy xalq diliga ham zavq-shavq bag'ishlagan, ularga oliyjanob tuyg'ular ato etgan. Nazarimizda, atoqli adib Berdi Kerboyevning quyidagi fikrlari Alisher Navoiyning Turkmanistondagi shuhratini butun turkman xalqi nomidan mamnuniyat bilan e'tirof etishining yaxshi bir dalili:

«Miralini – Navoiyni turkman xalqi o'z klassigidek sevadi. Maktablarda savod chiqarish uchun o'qitiladigan asosiy kitoblardan biri Navoiy lirikasi edi. Savodli, o'qimishli odamlar o'z atrofiga tinglovchilarni to'plab, uning «Xamsa» sini haftalab o'qir edilar. Shu qo'shiqlar haliyam baxshilarning repertuaridan tushgani yo'q. Odatda, baxshilar uzoq kechaning kuy va qo'shiqlarini «Navoiy» pardasi bilan boshlar edilar». Maxtumquli Navoiyga katta ixlos qo'ygan, ijodini yuksak qadrlagan, uni o'ziga ustoz deb bilgan. Bu haqida turkman xalqi afsonalar ham to'qigan.

Turkmanistonda keng tarqalgan rivoyatlardan biri: «Navoiy tirik bo‘lganida» deb nomlanadi. Mazkur afsonaning mazmuni taxminan shunday: «Emishki, qaysidir bir anjumanda e‘tiborli kishilardan biri Maxtumqulidan so‘rabdi: agar hozir hazrati Navoiy bo‘lganlarida siz nima qilar edingiz? Ustoz Mir Alisher Navoiy hayot bo‘lganlarida, - debdi Maxtumquli, - men ul kishidan jilovdorlikni tilab olar edim. Otlarining jilovlaridan tutib, uzangilarini o‘par edim. Qo‘llariga suv quyib, sochiq tutsam o‘zimni jannatda deb bilar edim».<sup>7</sup>

Qardosh turkman xalqi Alisher Navoiyni doimo ulug‘ bir inson, donishmand va tadbirli davlat arbobi, kambag‘allarning manfaatlarini qo‘riqlagan gumanist shoir, adolat va haqiqat uchun kurashuvchi oliyjanob va sahiy kishi qiyofasida tasavvur qilgan. Buyuk iste‘dodli, zakovatli shoirning ana shu ulug‘ fazilatlarini haqida turkman hikoyatlari va latifalari yaratilgan.

Navoiy to‘g‘risidagi rivoyatlar birinchi marta 1941- yilda «Mirali va Sulton Suyun» nomi bilan alohida kitob holida chop etildi. To‘plamni folklorshunos olim P.Og‘aliyev nashrga tayyorladi va unga so‘zboshi ham yozdi.

Navoiy haqidagi afsonalar ikkinchi marta 1948- yilda Berdi Kerboboyev tahriri ostida «Mirali» nomi bilan o‘n besh ming nusxada nashr etildi. Mazkur to‘plam har jihatdan mukammal bo‘lib u yangi yozib olingan rivoyatlar, afsonalar hisobiga boyitilgan. U kitobga yozilgan so‘z boshi Alisher Navoiyning hayotiy va ijodiy biografiyasi haqida nisbatan to‘la va mukammal ma‘lumot beruvchi ilmiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Berdi Kerboboyev faqat Alisher Navoiy tarjimai holiga doir faktlarni, sanalarni qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki ijodi haqida, xususan, «Xamsa» dostoni to‘g‘risida kengroq ma‘lumot berishga intiladi. Navoiyning turkman adabiyotiga ta‘siri haqida ham ibratli fikrlarni bildiradi.

Mirali turkman hikoyalarining yaratilish tarixi, yozib olish manbalari xususidagi adibning mulohazalari samimiy va qiziqarli. B.Kerboboyev bir o‘rinda Alisher Navoiy ismining turkman folklorida Mirali shaklida qo‘llanishining sababini shunday izohlaydi: «Navoiyning ismi «Ali» bo‘lib, «Mir» yoki «Amir» uning xizmat lavozimi. Lavozimni anglatadigan bu so‘zlar uning ismining oldiga qo‘shilib

---

<sup>7</sup> «Guliston» jurnali, 1972-yil 9-son. Turkmanchadan X.Xo‘jayev tarjimasi.



«Mir Ali» deb yuritiladi. Turkman xalqi bu ikki soʻzni qoʻshib, uni Mirali deb atay boshlagan».<sup>8</sup>

Ana shunday davrlarning shaxsan guvohi boʻlgan B.Kerboboyev «Mirali va Sulton Suyun» toʻgʻrisida xalq toʻqigan rivoyatlar, latifalar turkman xalqi orasida yuzlab – minglab topiladi. Mening yodimda: kishilar Mirali va Sulton Suyun haqidagi rivoyatlarni, latifalarni ertalabdan kechqurungacha yoki ilk oqshomdan yarim tungacha aytishardi. Bu qiziqarli hikoyatlar tinglovchilarga zavq bagʻishlardi, ularning maʼnaviy tarbiyasiga, zehnining oʻtkirligiga, dunyoqarashning kengayishiga katta foyda beradi.

Turkman xalqining Alisher Navoiy haqida toʻqigan rivoyatlari tematik jihatdan juda rang – barang. Shoirning kamtarinligi va saxiyligi, dono va epchilligi toʻgʻrisida hikoya qiluvchi «Koʻrpangga qarab oyoq uzat», «Podsho oʻlarigʻa», «Mirali bilan savdogar», «Osmonning oq tovugʻi» kabi rivoyatlarda Navoiyning oʻlmas xalq qahramoni – Afandini eslatadi.

Jumladan, «Netmak kerak» degan rivoyatda shoirning eng murakkab holat va vaziyatlardan ustalik bilan yoʻl topib chiqib keta olish qobilyati yorqin gavdalantirilgan. Sulton Suyunning Gul degan sevimli xotini bor ekan. Shoh uni hamma narsadan aziz bilar ekan. Sulton Suyun uning oʻlimini hatto tasavvur ham qilolmas ekan. Bir kuni Sulton Suyun vazirlarini chaqirib: «kimda xavf ostida qolgʻusidir» - debdi. Ayagan koʻzga choʻp tushar deganlaridek, kunlardan bir kun Sulton Suyunning sevikli xotini Gul qazo qilibdi. Vazirlar bu xabarni Sulton Suyunga aytolmasdan, Miraliga yaqinlashibdi. Mirali Sulton Suyun yoniga borib bosh egibdi.

- Agar Sultonim ijozat bersalar, shoiriningiz bir misra sheʼr bilan murojaat qilmoqchiman.

- Sarv gul soyasida soʻlsa gul netmak kerak?

Sulton Suyun ham unga sheʼr bilan:

- Sarvdan tobut yasab, guldani kafan etmak kerak, - deb javob beribdi da, yuragining qattiq – qattiq urishidan qisqa – qisqa nafas olibdi da va debdi:

- Oh! U gul oʻldi, desang boʻlmaydimi axir!

---

<sup>8</sup> Мыралы. Туркмендавнашр. Ашгабат. 1948 й. 3 бет.

- Gul o'ldi deb aytay desam o'z o'limim ko'z oldimga keldi shohim, - debdi Mirali». Ko'rib turibsizki, bu hikoyatda ham Mirali o'zining o'tkir aqli va farosati, nazmi bilan shohni moy qila oladigan bir ulug' siymo sifatida gavdalangan.

Biz Navoiy haqidagi «Dumli yulduz», «Mirali va Sulton Suyun», «Puldor xotin», «Kechir do'stim», «Pullar qayerga sarflanayapti», «Kim haq» singari arsona – rivoyatlar mazmunida ana shunday befarosat va zolim shohlarni lol qoldirgan, xasis va yaramas savdogarlarni fosh qilgan, beva – bechoralarni qo'llab quvvatlagan ziyrak Miralini ko'ramiz. Quyidagi «Pullar qayerga sarflanayapti» nomli afsonada Miralining xalqparvarligi, kambag'alparvarligi hikoya qilinadi: «Mirali bilan Sulton Suyun ilgari tanish bo'lishsa-da, podsho do'stinikiga biror marta ham mehmon bo'lib kirmagan ekan. Kunlarning birida, podsho Miralining uyiga bormoqchi bo'ldi. Ko'nglingiz tortsa jonim bilan deb Mirali rozilik bildiradi. Podsho vazirning uyiga keladi. Bosh vazirning uyi joynamozi yig'ishtirib olingan masjidning o'zi. Qabristondek huvillab turibdi. Juldur to'shakdan boshqa biror narsa yo'q. miralining xotini uyining bir burchagida ip pishitib o'tiribdi. Sulton Suyun hayron qoladi. – Bu kimning uyi, - deb so'raydi u. – Bosh vaziringizniki sultonim, deb javob beradi Miralining xotini. – Ajabo, men unga har oy yuz tilla beraman-ku, nega shu qadar g'aribsizlar deydi Sulton Suyun. Xudoga shukur, tan jonimiz sog', ishlashga qurbimiz yetadi. Kunimiz o'tib tursa bo'lgani. Siz to'layotgan pullar, mazmunidan o'z egalariga yana qaytayapti, - ehtirom bilan javob qiladi Miralining xotini. – Hayronman, axir bosh vazirimga har oyda berayotgan yuz tilla qayerga ketayapti, - takror so'raydi Miralidan podsho. – Tashqariga chiqaylik hammasini tushunasiz sultonim – deydi gapni qisqa qilib Mirali. Yo'lda ketayotib bu voqeaning tagiga tezda yetmoqchi bo'lsa kiyim boshlari va otini almashtirib olishi lozimligini aytadi. Sulton suyun ko'ndi. Ular shahar atrofida gad ova mayib majruhlar yashaydigan mahallaga borishdi. Podshonbing otini minib, kiyimlarini kiyib olgan Miraliga hech kim e'tibor bervas, aksincha, Miralining kiyim boshidagi Sulton Suyunni olomon o'rab olardi. Kimdir otning yuragini ushladi, qolganlar uning qo'ltig'idan ko'targancha, avaylab yerga tushirishdi. Har tomondan: «Assalom Mirali», «Nuri diydami haloskorimiz, Xudo umringni uzoq qilsin!» degan xitoblar eshitilardi.

- Mirali, birodar! – yolvordi Sulton Suyun, - meni olomon ichidan olib chiqmasangiz bo‘lmaydi. Bularning podshosi men emas, siz ekansiz. Men to‘layotgan pullarni qayerga sarflayotganingizni endi bildim. Hayoti taxlika ostida qolayotgan majruhlar biroz tinchiganidan keyin Mirali ularning hol ahvolini so‘ragani Sulton Suyunning o‘zi kelganini aytganda, hamma podshoni yanada zichroq qurshab oladi. Ular Sulton Suyunning etagini tutishib sajda qilishadi. Sulton suyun yana Miraliga yalinadi, - Xudo xayriningizni bersin, aytganingizni beraman, ammo meni bu tashvishdan xalos qiling ketaylik, - Bu baxtsizlar uchun uy qurib, ularni xazinangiz hisobiga boqishga va‘da qilsangiz... bu yerdagi juda badbo‘y isdan juda ko‘ngli behuzur bo‘lib, boshi aylangan podsho Miralining taklifiga xo‘p dedi: «bu g‘arib beva bechoralarning himoyachisiga ham yangi uy qurib beraman» - deb qo‘shib qo‘yadi.

Turkman xalqi ijod etgan bu voqea, garchi afsona bo‘lsada, uning negizida hayot haqiqatiga yaqinlik, shoir shaxsiga oz bo‘lsa-da, o‘xshashlik bor ekanligi ko‘rinib turibdi. Mazkur rivoyatda xalq baxt-saodati uchun kurashgan va ijod qilgan, butun asarlari va hayotini o‘z xalqiga bag‘ishlagan Navoiyning xalqparvarligi afsona libosida bo‘lsa-da, shoir shaxsiyatidagi insoniy fazilatlarga yaqinlashtirilib, muvofiqlashtirilib to‘qilgan.

Yuqorida aytilganlardan ma‘lum bo‘layaptiki, Navoiy va turkman adabiy muhiti mavzusi nihoyatda ko‘pqirrali va rang-barang bo‘lib, hozirga qadar uning butunlay o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan tomonlari anchagina bor. Demak, bu monografik plandagi tadqiqotga muhtoj.

### **Tojik xalq og‘zaki ijodida Navoiy timsoli**

Tojik xalq og‘zaki ijodida Guli haqidagi afsonalar keng tarqalgan. Ularning bir necha xil variantlari mavjud. Variantlarning mushtarak jihatlari ham, farq-tafovut va o‘ziga xos xususiyatlari ham bor. Ularni shartli ravishda Buxoro afsonasi, turkman va o‘zbek afsonalariga bo‘lish mumkin. Aslida bu afsonalar mushtarakdir, ularning maxraji birdir. Turkman siklining katta farqi shundaki, unda Guli Sultonsuyunning xotini yoki sevikli yori sifatida tasvir etiladi.

Tojik xalq og‘zaki ijodidagi Buxoro varianti, professor A.K.Borovkov ta’kidlab va bo‘lib ko‘rsatganidek<sup>9</sup> bir necha epizodlardan tashkil topgan: 1. Alisher Qarshi bozorida 1000 qo‘yni nasiyaga tarqatib yuborib, Sultonning o‘lganidan keyin olaman deydi. Buni eshitgan sulton Husayn yasovullarini yuborib, Alisherni chaqirtirib so‘roq qiladi, u “qo‘yni nasiyaga olgan Sultonimiz o‘lmasin” – deb sizni duo qilishadi deb omon qoladi. Sultonning e’tiqodini qozonib, vazir tayinlanadi. 2. Alisher kunlarning birida bog‘ga borayotganida ittifoqo bir uyning tomida go‘zal qizni – Gulini ko‘rib sevib qoladi, uning otasidan nikohga rozilik oladi. 3. Ertasi kuni Sulton Husayn, Alisher Navoiy va boshqalar ovga jo‘nab ketishadi. Buni eshitgan Guli bo‘lajak eri – Alisher Navoiyni ko‘rmoqchi bo‘ladi. Biroq Husayn Boyqaroning nazari Guliga tushib, uni xush ko‘rib uylanmoqchi bo‘ladi. Gulining otasi Sulton Husaynning sovchilariga rad javobini beradi. 4. Alisher o‘z sevgisidan voz kechishga majbur bo‘ladi, o‘zi sovchi bo‘lib keladi. Guli bir shart bilan rozi bo‘ladi, ikki dori olib keltirib, birini o‘zi ichadi, ikkinchisini Alisherga ichiradi. Bu doridan qirqinchi kuni Guli o‘lishi Alisher esa zuriyodsiz qolishi lozim edi. 5. O‘limdan besh kun avval Guli Navoiyni saroyga yashirinchasiga taklif qiladi, unga vasiyat qilmoqchi bo‘ladi, ovdan qaytgan Sulton Husayn bexosdan buni bilib qoladi, ammo sezdirmaydi. Shohning g‘azabidan qo‘rqqan Navoiy Makkaga qochib ketmoqchi bo‘ladi, ammo shohning kechirganini aytib, mulozimlar uni yo‘ldan qaytarishadi. 6. Belgilangan vaqtda Guli o‘ladi, a‘yonlar bu musibatni Sulton Husaynga yetkazishni Alisher Navoiydan iltimos qiladilar. Alisher Navoiy Husaynga: “Sarvning soyasida so‘ldi gul netmoq kerak” deydi, bunga Sulton Husayn:

“Sarvdin tobut yasab, guldani kafan etmoq kerak”, – deb javob qaytaradi. Alisher va sulton ko‘z yoshi to‘kib, Gulini dafn etadilar. Bu afsonadagi turkiy – o‘zbekcha she‘r afsonaning boshlab turkiy aholi o‘rtasida paydo bo‘lgani, keyin fors-tojik tilida gapiruvchi aholi o‘rtasida ham tarqalganini ko‘rsatadi. Buxoro afsonasi kompozitsion takomillashib, kitobiy qissa tusini olgan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

---

<sup>9</sup> A.K.Borovkov, Navoiy i Jomiy predanii, o‘sa manba, 485-bet

1. I.Karimov Barkamol avlod orzusi. T.2000
2. I.Karimov Istiqlol va ma'naviyat T.1994
3. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.
4. N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, "O'qituvchi". T., 1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, "Fan", T., 1977.
6. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. "Fan", T., 1971.
7. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1990.
8. Shomuhamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. O'zadabiynashr. T., 1963.

### **3-MAVZU: NAVOIY MEROSINI O‘RGANISHNING DASTLABKI BOSQICHI**

#### **Reja:**

1. Navoiy faoliyati va merosining o‘rganilish tarixi.
2. Navoiy faoliyati va merosi haqida – uning o‘z asarlarida.
3. Navoiy – zamondoshlari talqinida.

#### **1. Navoiy merosini o‘rganishning dastlabki bosqichi**

Alisher Navoiy o‘zining faoliyati va olijanob insoniy fazilatlarini bilan hayotligi vaqtidayoq juda katta obro‘ va hurmatga sazovor bo‘lgan. Shuning uchun uning hayoti, faoliyati, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish, shaxsiy fazilatlarini yoritish, unga baho berish, uni ibrat-namuna sifatida e’tirof etib keng targ‘ib etish o‘sha vaqtdan, ya’ni XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Alisher Navoiy haqida hozircha birinchi ma’lumot 875-hijriy-1470-melodiy yilda yozilgan «Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul bahrayn» (ikki saodat bag‘ishlaguvchining boshlanishi va ikki dengizning birlashuvi) nomli tarixiy asarda uchraydi. Asarning muallifi Abdurazzoq Samarqandiy bo‘lib, mazkur kitobning ikkinchi jildida 1470-yilning safar – avgust oyigacha sodir bo‘lgan voqyealar bayoni jarayonida Alisher Navoiyni «Amir Alisher» tarzida tilga oladi, uning hayoti va ijtimoiy faoliyati haqida mo‘jazgina ma’lumot beradi. Bu manbada Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro taklifi bilan Samarqanddan Hirotga kelib, «Hiloliya» qasidasini buyuk hayit kuni Sulton Husayn Boyqaroga taqdim etgani uqtirilgan. Shuning bilan birga Alisher Navoiy Samarqanddaligi vaqtida Xoja Fazlulloh Abulaysiy hamda Xoja Ubaydulloh-Xoja Ahrori Vali so‘hbatlaridan bahramand bo‘lganligi ham birinchi marta tilga olinadi.

Navoiyning faoliyati va merosini o‘rganish uzoq va murakkab tarixga egadir. Bu tarix XV asrning o‘zidan, Navoiy zamondoshlarining asarlaridan boshlanadi. Besh asrga yaqin davr ichida Navoiyning faoliyati va merosini o‘rganish murakkab taraqqiyot bosqichlarini kechib o‘tdi.

Alisher Navoiy yaratgan asarlarni o‘z davrining mashhur xattotlari bo‘lmish Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Abduljamil kabilar go‘zal tarzda ko‘chirish bilan ularning avlodlarga yetib kelishiga bois bo‘ldilar.

### **Navoiy faoliyati va merosi haqida – uning o‘z asarlarida.**

- "Muhokamat ul-lug‘atayn"da Navoiy o‘zi haqida.

Navoiyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda birinchi manba Navoiyning o‘z asarlaridir. Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, uning "Munshaot", "Vaqfiya", "Xamsat-ul-mutahayyirin", "Xutbai davovan", "Majolis-un-nafois" va "Mahokamat-ul-lug‘atayn" kabi asarlarida uning hayoti va faoliyatiga doir ko‘p va qimmatli faktlar, ma‘lumotlar bor. Bu fakt va ma‘lumotlar Navoiyning shaxsiy hayoti, uning ijodiy faoliyati, ayrim asarlarining yozilish tarixi, rejaları va orzu-intilishlari, madaniy hayot va obodonchilik sohasidagi xizmatlari, xalqning osoyishtaligi uchun kurashi, muhrdor va vazir sifatida qilgan ishlari, do‘stlari, hamkorlari, raqiblari va dushmanlari bilan bo‘lgan munosabatlari kabi masalalarni qamrab oladi.

### **3. Navoiy – zamondoshlari merosida**

Navoiyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar ham juda qimmatli manbadir. Bular Xondamirning "Makorim-ul-axloq" ("Yaxshi xulqlar"), "Habib-us-siyar" ("Suyukli xislatlar"), "Xulosat-ul-axbor" ("Voqealarning xulosasi") Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush-shuaro" ("Shoirilar tazkirasi") asarlari, Boburning "Boburnoma"si, Vosifiyning "Badoyi-ul-vaqoye" ("Go‘zal voqealar") kitobi va boshqalardir. Shu bilan birga, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Xiradnomai Iskandar" va "Bahoriston" kabi asarlarida hamda boshqa mualliflarning kitoblarida Navoiyning faoliyati va ijodiyotiga doir muhim ma‘lumot, ta‘rif va baholar berilgan. Bu manbalarda faktik material va ob‘ektiv fikr-mulohazalar bilan birga, ba‘zan Navoiy bilan Husayn Boyqaroning do‘stligini ortiq darajada bo‘rttirib yuborish, ularning o‘rtasidagi ixtiloflardan ko‘z yumish, Navoiyning ayrim fazilatlarini ilohiylashtirish kabi kamchiliklar ham bor. Binobarin, Navoiyning hayoti va faoliyatini, XV asr tarixiy voqealarini yoritishda bu manbalardan tanqidiy foydalanish zarurdir.

1470- yildan soʻng yozilgan tarixiy («Ravzat us-safo»), ilmiy («Nafahot ul-uns»), «Tazkirat ush – shuaro») va badiiy («Haft avrang», «Bahoriston») asarlarda ham Alisher Navoiyning nomi zikr qilindi, uning haqida turli xildagi maʼlumotlar keltirildi. Hatto unga bagʻishlangan maxsus holot-manoqib («Makorim ul –axloq») asari ham yaratilib, unda Alisher Navoiy hayoti, shaxsiyati, faoliyati, merosi, ijodiy aloqalari, turli yozishmalari, ayrim asarlarining yaratilish sabab va tarixi haqida nodir hikoyat va hujjatlar toʻplandi.

Alisher Navoiy Davlatshoh Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Haydar (“Tarixi Rashidiy”) va boshqalarning maʼlumoticha, nozik tabiatli kishi boʻlgan, oʻrinsiz tabiatli kishi boʻlgan, noxush kishilarni oʻz majlisiga yoʻlatmagan. Alisher Navoiy mijozidagi bu xususiyatlarni ayrim kishilar davlat va matsab kibri gʻururiga yoʻyganlar. Aslida esa nozik tabiatlilik Navoiyning tugʻma xislati boʻlgan. “Alisherning mijozi, – deydi Bobur, – nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatining gʻururidan tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur. Samarqandda ekanda ham ushmundoq nozuk mizoj ekandur”<sup>10</sup>.

Alisher Navoiyning hazil-mutoyibaga munosabati, uning yumori, badihagoʻylik, hozirjavoblik, zarofat va boshqalar borasidagi sifatlari haqida aniqroq tasavvurga ega boʻlish uchun uning oʻz asarlaridan, “Majolisun-nafois”, “Xamsatul-mutahayyirin” va boshqalardan bir necha parchalarni koʻrish mumkin. Zotan, Navoiy haqidagi zamondoshlarining hikoya va latifalari oʻz xususiyatlari bilan Navoiyning oʻz yumoriga, sodir boʻlgan voqeani hikoya qilish manerasiga ham oʻxshab ketadiki, bu hikoya va latifalarning Navoiy davridagi janr va uslub mushtarakliklarini yoritish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Xondamirning yozishiga qaraganda, 1476 – 1477 – yillarda Alisher Navoiyning qurdirgan «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari singari «Xisraviya» madrasasida ham ming – minglab talabalar oʻqigan. Navoiy talabalarning osoyishta bilim olishlari uchun hamma sharoitlarni yaratishga harakat qilgan, hatto ularning faqat oʻqish bilan mashgʻul boʻlishlari uchun ularga nafaqalar ham belgilangan.

---

<sup>10</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, OʻzFAN, Toshkent – 1960, 233-bet.



Keyinchalik ana shu talabalar orasidan katta olimlar yetishib chiqqanligini Xondamir mamnuniyat bilan yozadi: «... shuningdek, tahqiq va ishonch arboblarning qiblasini boʻlgan bu zot (Navoiy) Sohibqironning podshohligi zamonida atoqli olimlar va hurmatga loyiq sanʼat ahllarining darajalarini koʻtarishga va martabalarini oshirishda qoʻldan kelgan qadar harakat qildi. Talabalarning tinch bemalol ilm olishlari uchun ularga nafaqalar belgilab, madrasa va xonaqohlar bino qildi. «Injil» nahri boʻyiga nihoyat zeb – ziynatli qilib ishlangan madrasai «Ixlosiya» solindi... Madrasai «Nizomiya» Hirot shahri ichida... Madrasai «Xisraviya» Marv shahrida bino qilingan. Donishmand arboblarning xotirida yashirin qolmasinki, yuqorida zikr qilingan binolarning sharofati va barakati butun dunyoda shu qadar mashhurki, bundan ziyodani xotirga keltirib boʻlmaydi».<sup>11</sup>

### **Adabiyotlar roʻyxati**

I.Karimov Barkamol avlod orzusi. T.2000

I.Karimov Istiqlol va maʼnaviyat T.1994

Oʻzbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.

N.M.Mallayev. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, "Oʻqituvchi". T., 1976.

Oʻzbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, "Fan", T., 1977.

Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. "Fan", T., 1971.

Haqqulov I. Tasavvuf va sheʼriyat. Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. T., 1990.

Shomuhamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. Oʻzadabiynashr. T., 1963.

---

<sup>11</sup> Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent. 1969., 286 - bet

#### 4-mavzu: **XVI-XIX ASRLARDA NAVOIY HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI**

Reja:

1. XVI-XIX asrlarda Navoiy ijodi bo‘yicha yaratilgan lug‘at va tarix kitoblarida Navoiy ijodi.
2. XVI-XIX asrlar Navoiy ijodidan tarjimalar.
3. XVI-XIX asrlar Yevropada Navoiyshunoslik.
4. XVI-XIX asrlar Navoiy asarlariga munosabat.

#### **Navoiy ijodining XVI-XIX asrlarda o‘rganilishi**

Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning shuhrati bag‘oyat balandligi tufayli (u) ta’rif va tavsifga muhtoj emas. Fazl arbobini tarbiyat qilish va kamolotga yetkazish maqsadida ko‘p sa’y qildi, bechoralar ahvolini yaxshilashda himmat ko‘rsatdi.

Aliqulixon Vola Dog‘istoni, XVIII asr.

Ali Sher Navoiy o‘z zamonining eng ulug‘ va eng mahsuldor shoirlaridandir.

M.Belen, XIX asr, Fransiya.

Mir Alisherning asarlari ozmi-ko‘pmi adabiyotdan xabardor har bir o‘zbekning xonadonida eng ulug‘ o‘rinda turadi.

German Vamberi, XIX asr, Vengriya.

Navoiy o‘zbek adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida ustoz shoir va xalqning benihoya katta hurmati va muhabbatiga sazovor bo‘lgan so‘z san‘atkori bo‘lib qoldi. Bu ulug‘ san‘atkorning asarlari turli davrlarning xattotlari tomonidan zo‘r ehtirom va muhabbat bilan ko‘chirildi, rassomlarning naqshi va suratlari bilan ziynatlandi. *XIX asrning 70-yillarida O‘zbekistonda bosmaxona* paydo bo‘lganidan keyin Navoiyning “Xamsa“, „Chor devon“, „Vaqfiya“ va boshqa asarlari bir necha bor nashr etildi. Navoiyning ayrim asarlari o‘quv-qo‘llanmalari sifatida foydalanildi, g‘azallari kuyga solindi, hikmatli so‘zlari maqollarga aylandi.

XVI-XIX asrlar orasida Sharqning islomiy mintaqalarida yaratilgan turli xil asarlarda, jumladan Z.M.Boburning «Boburnoma», Vosifyning «Badoye’ ul-vaqoye’», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy», Abulmo‘minxonning «Tom

ut-tavorix» (XVI asr), Abdulloh Kobuliyning «Tazkirat ut-tavorix», Sayid Sharif Roqim Samarqandiyning «Tarixi kasira» (XVII asr), Volai Dog‘istoniyning «Riyoz ush-shuaro» (XVIII asr)<sup>1</sup> va boshqalarda Alisher Navoiy hayoti, merosi, faoliyatidan bahs yuritildi.

Shuning bilan birga „Xamsa»ning nasriy bayonlari, jumladan, Umar Boqiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»i (XVIII asr oxiri XIX asr boshi), Mir Mahmud ibni Shoh Yunus va Haybatulloh xo‘ja Xislatning «Nasri «Xamsa»i benazir»i (1908-yil); Mullo Siddiq Yorkandiyning «Xamsa»ning uyg‘urcha nasriy bayoni» (XIX asr) va boshqalar<sup>1</sup> yaratilgan edi.

Bularning hammasi bu davrda, ya’ni XVI-XIX asrlar davomida Alisher Navoiy merosiga bo‘lgan qiziqishning nihoyatda kuchli ekanidan dalolat berib qolmay, balki uning ma’naviy hayotdagi mavqeyidan ham guvohlik beradi. Shuning uchun bu davrda Navoiy asarlarini qo‘lyozma tarzida ko‘chirib, targ‘ib etish qanchalik mashhur bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan so‘ng ularni toshbosma tarzida nashr etish ham boshlandi. Masalan, Alisher Navoiy «Xamsa»si birinchi marta 1880-yilda Xivada bosilib chiqqan bo‘lsa, keyinchalik «Xamsa», devon va boshqa asarlari ham Toshkent, Buxoro, Samarqand toshbosmalarida qariyb har yili nashr etildi.

### **XVI-XIX asrlarda Navoiy ijodi bo‘yicha yaratilgan lug‘at va tarix kitoblarida Navoiy ijodi**

XVI-XIX asrlarda Navoiyni o‘qish, o‘rganish va undan ta’lim olish tobora oshib boradi. Navoiy asarlari Sharq o‘lkalarining ko‘p hattotlari tomonidan qayta-qayta ko‘chiriladi va nodir kitoblar fondiga kiradi. Navoiy asarlarini yaqindan o‘rganish uchun lug‘at kitoblari tuzila boshlaydi. Navoiy hayotining oxirida yoki o‘limidan biroz keyin uning asarlari asosida “*Badoye-ul-lug‘at*”, keyinroq esa “*Lug‘ati Navoiy*” yaratiladi.

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаралсин: Б.Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. Тошкент, «Ўзбекистон», 1993, 169-175-бетлар.

<sup>2</sup> А.Ж. Хайитов, Алишер Навоий «Хамса»сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин. НДА, Тошкент, 2000.

1560-yilda Aloyi binni Muhibiy “Al-lug‘at-un-Navoiyat v-al-istishhodat-ul-chig‘atoyat” (“Naoviy lug‘ati va chig‘atoy tili dalillari”) kitobini tuzadi.

XVIII asrda Mirzo Madhiyxon tuzgan “Mabon-ul-lug‘at” (“Lug‘at poydevori”), XIX asrda Fath Ali Qojariy hamda Shayx Sulaymon Afandiy Buxoriy tuzgan lug‘atlarda va boshqlarda Navoiy asarlari asosiy so‘zlik bo‘lib xizmat qiladi. Bu lug‘atlarning ko‘pi fors-tojik tilida yaratilgan edi; Shayx Sulaymon Afandiyning "Lug‘ati chig‘atoy va turki usmoniy" asari esa turk tilida yozilgan edi. Forscha va turkcha lug‘atlardan tashqari, xorazmlik olim Muhammad Xoksoning o‘zbek tilida yozilgan "Muntahab-ul-lug‘ot" ("Tanlangan lug‘atlar", 1798-yil) kitobi ana shunday lug‘atlardandir.

Rus va G‘arbiy Yevropa sharqshunoslari Navoiyning faoliyati va ijodiyotini o‘rganishda M.Nikitskiy va S.Belendan keyin ham bir muncha ish olib boradilar. Masalan, rus sharqshunosi V.V.Velyaminov-Zernov 1868-yilda Sankt-Peterburgda XVI asrda tuzilgan "Al-lug‘at-un-Navoiyat v-al-istishhodat-ul-chig‘atoyat" lug‘atini nashr ettiradi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl Navoiy asarlaridan foydalanib, lug‘at tuzadi.

**Tarix kitoblari.** Navoiy keyingi asrlarda yaratilgan barcha tazkiralardan, bir qator tarix kitoblari va memuarlardan ham keng o‘rin oladi. Lutf Alibek Ozarning "Otashkada", Som Mirzoning "To‘hfai Somiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Majma-ul-fusaho" ("Go‘zal so‘z egalarining to‘plami",) Faxriy Hiraviyning "Latofatnoma", Mirzo Haydar Do‘g‘latning "Tarixi Rashidiy" asarlari va boshqa-boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlarda Navoiy zamondoshlarida bo‘lganidek qimmatli faktik material va ob‘ektiv adabiy-tarixiy mulohazalar bilan birga, Navoiy yashagan davrni, Navoiyning ayrim fazilatlarini ideallashtirish va Navoiy asarlarining mohiyatini chuqur ocha bilmaslik kabi nuqsonlar bor.

## **XVI-XIX asrlar Navoiy ijodidan tarjimalar**

S.G'aniyeva maqolalaridan birida aytilishicha, Navoiy asarlarining birinchi tarjimai hirotlik shoir va olim **Faxri** tomonidan **1521-1522- yillarda** amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchi tarjima Muhammad Qaznaviy qalamiga mansub bo'lib, u 1522-1523- yillarda ro'yobga chiqqan. Qizig'i shundaki, tarjimonlar "Majolisun nafois"ni fors tiliga o'girishda unga ijodiy munosabatda bo'lib tazkiraning ko'p joylarini o'zgartirgan, o'zlaridan yangi manbalar kiritgan. Jumladan, sakkiz majlisdan iborat bo'lgan «Majolisun nafois»ga to'qqizinchi majlisni qo'shib, tazkiraning hajmini kengaytirgan.

Navoiyning «Majolisun nafois» tazkisasi o'zbek turkman adabiy aloqalari tarixini o'rganishda ham muhim manba bo'lib hisoblanadi. Navoiyning «Majolisun nafois» asari XVI-XVII asrlar turkman adabiyotida tazkira janrining vujudga kelishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bu asar o'zining ko'pgina xususiyatlari bilan turkman shoirlari, tarixchilari va olimlarining diqqatini jalb etgan va ular ham Navoiydan o'rganib tazkira janrining namunalarini yaratishgan. Taniqli turkman adabiyotshunos olimi Ashirpur Meredoning «Majme-ul havas» asari qimmatli adabiy manbadir. XVI asrning o'rtalari va XVII asrning boshlarida yashab ijod etgan turkman olimi, shoiri va rassomi Sodiqbek Avshar Sodiqbiyning ham Navoiy an'analari izidan borib «Majmeul havas» nomli tazkira yaratganligini qayd etadi.

Meredoning yozishicha, Sodiqiyning «Majmeul havas» asarida fors, arab va turkiy tilda ijod etgan 332 turkman shoiri haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, tazkiraning oxirida Sodiqiy o'zi to'g'risida ham ma'lumot bergan. Sodiqiy tazkira yaratishga kirishmasdan oldin, o'zigacha mavjud bo'lgan shu janrdagi asarlar bilan mufassal tanish bo'lgan, ayniqsa, Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Majolisun nafois» tazkiralari tajribalardan foydalangan. «Majmeul havas»ning muqaddima qismida Sodiqiy o'z salaflarining tazkiralari hurmat bilan tilga oladi. Hatto Navoiy sha'niga uch bayt g'azal bag'ishlab, ulug' shoirga bo'lgan chuqur hurmatini bayon etadi, o'z tazkirasini bevosita «Majolisun nafois»ga o'xshatma tarzida yaratayotganligini alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat sakkiz bo'lim va xotimadan iborat bo'lgan «Majmeul havas» tazkisasi barcha xususiyatlari bilan «Majolisun nafois»ga juda yaqin turadi. Fors,

arab, turkiy tillarda qalam tebratgan so‘z san‘atkorlariga berilgan ta’riflarda ijodini baholashdagi o‘lchovlarda Navoiy tazkirasiga o‘xshashliklar juda ko‘p. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy asarlari, jumladan, «Majolisun nafois» XVI-XVII asrlardayoq turkmanlar o‘rtasida juda mashhur bo‘lgan shoirlar, olimlar, tarixchilarining diqqatini jalb etgan, tazkira janrining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

*Денгиреде йурген уссат Новайы*

*«Чар диваны», «Перхат - Ширин» зыбайы.*

*Захыреддин Бабур, «Мизан - эвзаны»,*

*Гашларына барып мен Межнун болсам.*<sup>12</sup>

XVIII asrda yashab ijod etgan turkman xalqining buyuk klassik shoiri va donishmandi Maxtumquli – Firog‘iy Alisher Navoiy ijodiga hurmat va e’tiqodini «Bo‘lsam» radifli she’rida ana shunday ifoda etgan edi.

Ayniqsa, turkman shoirining «Ko‘ngil» radifli g‘azalida Navoiyga yaqinlik yaqqol seziladi:

*Билмезем хич, кайсы дердин мубтеласыдыр кунул,*

*Я, реб ол бывепанын чох ховэсидир кўнул.*

Maxtumqulining ushbu bayt bilan boshlanuvchi g‘azali bizga Navoiyning «Ko‘ngul» radifli g‘azalining g‘oyaviy – badiiy xususiyatlarini eslatadi:

*Қани, бир чехраки майл этгай анга хаста кўнгул,*

*Қани, бир зулфки бўлгай анга вобаста кўнгул...*

Tashqi jihatdan qaraganda har ikki shoirning g‘azal va nazirasi g‘oyaviy – badiiy komponentlari bilan bir – biriga juda uyg‘unlashib ketgan. Lekin bu Maxtumquli Navoiy g‘azaliga nazira bog‘lar ekan, uni aynan takrorladi, degan ma’noni anglatmaydi. Maxtumqulining o‘zgachaligi har baytning mazmunida anglashilib turadi.

Navoiy talqinidagi lirik qahramonning ko‘ngli ko‘proq ma’shuqa dardida bezovtalansa, Maxtumquli ta’rifidagi oshiqning ko‘ngli yorning bevafoolidan,

---

<sup>12</sup> Магтымгулы. Сайланан эсарлар. Ики томлук. 1 – том. Ашгабат. 1983. 67 – бет.

zamonning g'am – g'ussadan to'lg'anadi. Yana bir farqi shundaki, Maxtumquli nazirasining ifoda tarzi sodda xalq tiliga juda yaqin.

Bunday qiyosiy tahlilga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Maxtumqulining «Qoshi yoy», «Naylaram», «Ey, do'st», «To'g'risi», «Bordir», «Bo'ldim», «G'ayri», «Bexabar», «Mehmondir», «Bilmasmiding» va yana boshqa o'nlab g'azallari borki, ular ham aruz vaznida yozilgan, Navoiy an'analarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning o'ziga xos adabiy misoli bo'la oladi.

### **XVI-XIX asrlar Yevropada Navoiy ijodining o'rganilishi**

XVI-XIX asrlarda G'arbda ham Alisher Navoiy merosiga bo'lgan qiziqish, asarlarini nashr etish, tarjima qilish ko'zga tashlanadi. Navoiyning ayrim asarlari boshqa xalqlarning tiliga tarjima qilinadi va yangi asarlarning yaratilishida asos bo'ladi. Masalan, Xristofor Armaniyning 1557 yilda italyan tilida Venetsiyada nashr etilgan "Sarandib shohi uch yosh o'g'loninig ziyorati" asarining ikkinchi qismida Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidan Bahrom va Dilorom sarguzashti hikoya qilinadi. Shuningdek, XVII asr gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonini yaratadi. XVII asrning birinchi yarmida o'tgan gruzin shoiri Nodor Persodanidze: "Navoiy bu qissani ("Sab'ai sayyor" ni) chig'atoy (qadimgi o'zbek ) tilida yozgan, biz shoirlikda biron kishini u bilan tenglashtirib tasavvur qila olamizmi?"-degan edi. Navoiy asarlarini tarjima qilish keyin ham davom etadi. XIX asrning oxiri va XX asrda turk va tatar tiliga tarjima qilinadi.

Bu faktlar xalqlar o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarning uzoq tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq ekspluatatsiyaga asoslangan tuzum bu xalqlarga o'z madaniy va adabiy merosi bilan yaqindan tanishish va undan foydalanish imkoniyatini bermagani kabi, boshqa xalqlarning madaniyati va adabiyoti bilan kengroq tanishish imkoniyatini ham bermas edi. XIX asr oxirlaridan boshlab esa Eronning paniranistlari va Turkiyaning panturkistlari Navoiyning ijodiy soxtalashtirishga, uni "Eron shoirlarining tarjimoni" yoki "umumturk shoiri" deb o'z paniranistik va napturkistik qarashlarini targ'ib qilishga, kitobxonlarni chalg'itishga intildilar.

1697 yilda fransuz sharqshunosi Derbelo «Sharq kutubxonasi» qomusini nashr ettirdi. Unda Alisher Navoiyga doir mo'jaz ma'lumot ham bor. Bunday ish xususan XIX asrda ancha jonlandi. Bu jihatdan fransuz sharqshunosi M.Belenning maqolalari hamda «Xamsat ul-mutahayyirin», «Mahbub-ul-qulub»dan parchalarning chop etishi (1861,1866 yillar), Katrmerning esa «Tarixi muluki Ajam», «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarining asliyatda nashr etishi (1841), rus sharqshunosi M.Nikitskiyning «Amir Nizomiddin Alisher va uning davlat hamda adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzusida yozilgan magistrlik dissertasiyaning kitob holda nashr etilishi (1856 yil), Pave de Kurteyl, N.Ilminskiy, I.Berezin va boshqalarning turli xildagi ishlarini eslatish kifoya. To'g'ri, G'arb sharqshunoslari asarlarining hammasi ham bir xil saviyada yozilgan, ularning hammasida ham Alisher Navoiy merosiga yuksak baho berilgan deb bo'lmaydi. Chunki bu sohadagi ish endi boshlanayotgan bo'lib, hali uning hamma asarlari ham to'liq va chuqur ilmiy tarzda o'rganilganicha yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, bu urinishlarning natijasi sifatida M.Belenning «Alisherbek o'z zamonasining mashhur va eng sermahsul ijodkorlaridan biri bo'lgan» tarzida mulohaza yuritishi G'arb sharqshunoslarining dastlabki ijobiy xulosalari bo'lganidan dalolat beradi.

Evropaliklar XVI asrdanoq Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo'lsada, lekin Navoiyning faoliyati va ijodiyotini ham nashr etishga kirishildi. Fransuz sharqshunosi Katrmen 1841 yilda bosilgan xrestomatiyasiga Navoiyning ikki asarini: "Muhokamat-ul-lug'atayn" va "Tarixi muluki Ajam" ni kiritdi. Bundan bir oz vaqt keyin rus olimi I.N. Berezin "Turk xrestomatiyasi" kitobida Navoiy asarlaridan bir necha parcha berdi.

Navoiyning faoliyati va ijodiyotini o'rganish M.Nikitskiyning "Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati" nomli magistrlik dissertatsiyasi bilan (1856 yil) boshlandi. M.Nikitskiy Xondamir, Davlatshoh va Som Mirzoning asarlaridan foydalanib, sharqshunoslikda birinchi bo'lib Navoiyning hayoti va faoliyatini to'laroq aks ettirgan asar yaratdi. M.Nikitskiy Navoiyning siyosiy faoliyatiga, madaniyat sohasidagi ishlari va o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roliga yuqori baho beradi, uning iste'dodli olim va shoir ekanini ta'kidlaydi. Biroq,



Alisher Navoiyning badiiy asarlarini chuqur o'rgana olmaganligi uchun "Navoiy tarjimon shoir" degan g'ayri ilmiy bir xulosaga keladi.

M.Nikitskiydan 5 yil keyin, 1861-yilda Istambuldagi "Asiatique journal" ("Osiyo jurnali") da Fransiya konsulxonasining tarjimoni bo'lib xizmat qilgan M.Belening Navoiy hayoti va faoliyatiga doir maqolasi bosilib chiqadi. Unda Navoiyning davlat idora ishlari va madaniy hayotdagi xizmatlariga ijobiy baho beriladi. Biroq, ham Navoiyning badiiy asarlarini puxta o'rganmaydi, hech qanday asossiz: "Navoiy Xisrav Dehlaviy, Nizomiy va Jomiylarning tarjimonidir", -deb da'vo qiladi. Fransuz sharqshunosi E.Bloshe esa Navoiy asarlarining badiiy qimmatini kamsitadi.

Rus sharqshunosi N.I.Ilminskiy Navoiyning "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarini xiyla chuqur o'rganib, Navoiyni o'z ona tili – o'zbek adabiy tili uchun kurashgan qudratli kishi sifatida ta'riflaydi. Biroq rus sharqshunoslari ham, G'arbiy Yevropa sharqshunoslari ham Navoiy faoliyatini uning badiiy ijodiyoti bilan uzviy bog'lagan holda o'rganmadilar, ular Alisher Navoiyning siyosiy, ilmiy faoliyatini e'tirof qildilar-u, lekin uning badiiy ijodiyotini chuqur yoritmadilar va "Navoiy tarjimon" degan g'arbiy ilmiy qarashni davom ettirdilar. (Masalan, Belening fikriga tayangan fransuz sharqshunosi Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun va boshqalar ham shular jumlasidandir.) Afsuski, Navoiy haqida birinchi manbalar asosida "Mir Alisher va siyosiy hayot" degan qimmatli asar yaratgan atoqli rus sharqshunosi akademik V.V. Bartold ham bunday g'ayori ilmiy da'volardan xoli bo'lmadi va "Navoiy taqlidchi shoir" degan xato fikrni takrorladi.

Shunday qilib, rus G'arbiy Yevropa sharqshunoslari o'tmishda Navoiyning hayoti va faoliyati yuzasidan material to'plash, ularni sistemaga solish, umumlashtirish, Navoiy asarlarini nashr etish, Navoiyning til sohasidagi xizmatlarini o'rganish va boshqalar bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishgan bo'lsalar ham, lekin ularning tekshirish ishlari biografiya va lingvistika masalalari bilan chegaralanib qoldi. Navoiyning ijodiyotini, xususan, uning badiiy asarlarini ilmiy asosda o'rganish bilan uzviy bog'langan holda olib borilmadi. Ular Navoiyning badiiy ijodiyotini soxtalashtirdilar, uning originalligini inkor etdilar

## **XVI-XIX asrlar Navoiy asarlariga munosabat**

Barcha taraqqiyparvar o'zbek shoirlari Navoiydan ta'lim oldilar, uning an'analarini davom ettirdilar va rivojlantirdilar. Jumladan, shoir Munis bir she'rida:

*"So'z ichra Navoiyki jahongir turur,  
Munisg'a maoniy yo'lida pir turur",-*

deb uni o'zining ustozini hisoblaydi. Shoir Ogahiy esa:

*"Ogahiy, kim topg'ay erdi sozi nazmingdin navo,  
Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidan sengo",-*

deydi.

Navoiyning asarlariga nazira bitish, g'azallariga muxammas bog'lash bir odat bo'lib qoladi.

Biroq bularning barchasi uzoq tarix uchun, XVI-XIX asrlarni o'z ichiga olgan 400 yillik davr uchun nihoyatda oz edi, chunki xalq ommasining ko'pchilik qismi Navoiy asarlarini bevosita o'qish va o'rganish imkoniyatidan mahrum edi. Xalq qattiq ekspluatatsiya va jaholat zulmi ostida ezilgan, maorif va madaniyat boyliklaridan mahrum qilingan edi. Navoiyning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi ilmiy asosda o'rganilmagan edi. Navoiy asarlarining davrdan-davrga, kitobdan-kitobga o'tgan tekstiga o'rinsiz o'zgarishlar, xatolar va "tuzatishlar" kirib borar, lekin tekstologiya ishlari olib borilmas edi. Reaksiya feodal-klerikal doirlar bo'lsa Navoiy asarlarining kitobxonlar orasida tarqalishi va o'rganilishiga qarshi tish-tirnoqlari bilan kurash olib borar, ba'zilar Navoiy ijodiyotini soxtalashtirib uni "shohning ixlosmand vaziri", "ilohiy sevgi kuychisi" sifatida tasvirlar, ulug' shoirning asarlarini buzib talqin qilari edilar, feodal saroyining Ado (XIX asr) kabi xushomadgo'y shoirlari bema'ni maqtanchoqlik bilan:

*"Gar Navoiydin Ado so'zini o'tkarsa ne tong,*

*Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayni Boyqaro",-*

deb Navoiyni kamsitishga, uning ijodini Sulton Husayn Boyqaroga bog'lashga intilar edilar.

Navoiyning asarlari Sharq xalqlariga yaqindan tanish va manzur bo'lib boradi. Navoiy ko'p xalqlarning klassiklari qatoridan o'rin oladi, xalqlarning ehtiromi va

muhabbatiga sazovor bo‘ladi, ko‘p shoirlar Navoiyni o‘zlariga ustoz hisoblaydilar, undan ta’lim oladilar. Ko‘pgina tojik shoirlari, Fuzuliy, Kishvariy, Mirzo Fatali Oxundov, Ali Akbar Sobir kabi ozarbayjon yozuvchilari, Maxtumquli va Zelili kabi turkman shoirlari, qozoq yozuvchisi Abay, qoraqalpoq shoiri Berdaq, tatar shoirlari Abdulla To‘qay, Qayum-Nosiriy va boshq-boshqalar Navoiyni hurmat bilan tilga olib, unga yuksak baho beradilar, asarlaridan ta’lim oladilar va ayrim asarlariga naziralar bitadilar.

Navoiydan ta’lim olgan va ilhomlangan ulug‘ ozarbayjon shoiri Fuzuliy:

"Turku Ajamu Araba ayyom,  
Har shoira vermishdi bir kom,  
O‘lmishdi Navoiyni suxandon,  
Manzuri shahanahi Xuroson",-

degan bo‘lsa, Kishvariy (XVI asr) "Navoiy himmatidan Kishvariy ahli nazar bo‘ldi"- deydi. Xuddi shuningdek, qozoq adabiyotining Navoiydan ta’lim olgan klassigi Abay:

"Fizuli, Shamsi, Sayxali,  
Navoiy, Saadi, Ferdausi,  
Xoja-Xafiz bu ammasi  
Madat ber ya shagiri faryad",

va qoraqalpoq adabiyotining klassigi Berdaq esa:

"chor kitobdan tura qochdim,  
Navoiydan savod ochtim.  
Fuzuliydan durlar sochtim,  
Dilbarlarni izlar edim",-

deydi.

**Xulosa (XVI-XIX asrlar)**

Alisher Navoiyning faoliyati va ijodiyoti xalqlari o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi. Xalqlar do'stligi g'oyasini kuylagan ulug' shoir tojik, eron, ozarbayjon, hind, arab va boshqa xalqlarning adabiyotini muhabbat bilan o'rgandi va o'z navbatida boy ijodiyoti bilan Sharq xalqlari adabiyotining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

## 5-mavzu: **NAVOIY IJODINING SHO‘ROLAR DAVRIDA O‘RGANILISHI**

### **REJA:**

1. Sho‘rolar davrida o‘zbek navoiyshunosligining dastlabki bosqichi.
2. Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek navoiyshunosligi.
3. 50-80-yillarda o‘zbek navoiyshunosligi.
4. XX asr G‘arb navoiyshunosligi.

Bilmak Navoiyni bu zo‘r ma‘rifat nishoni,  
Bilmak Navoiyni bu o‘z naf‘i yo‘q ziyoni.  
Bilmak Navoiyni bu yuksakka eltar oni.  
Bilmak Navoiyni bu oinai jahoniy.

(O‘zbekiston xalq shoiri Sobir Abdullo)

Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayoti, shaxsiy fazilatlari, faoliyati, ko‘pqirrali merosini bilish va anglashga intilish moziydan hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Chunki ulug‘ o‘zbek shoiri, nosiri, mutafakkiri, davlat arbobi, ma‘rifatparvari, ijod ahlining murabbiysi, fuqaro g‘amxo‘ri, mamlakat yaxlitligi, tinchligi va osoyishtaligining tolmas kurashchisi Nizomiddin Amir Alisher Navoiy o‘zining ko‘pqirrali faoliyati bilan mamlakat va xalq taqdiri, ilm-ma‘rifat, she‘riyat va ma‘naviyat tarixida alohida mavqyega ega bo‘lgan benazir siymodir.

### **1. Sho‘rolar davrida o‘zbek navoiyshunosligining dastlabki bosqichi**

“... Navoiyshunoslik XX asrning 20-yillarida an‘anaviy navoiyshunoslikka nisbatan boshqacha yo‘nalish va mazmun kasb etdi. Navoiy ijodi bu davrda ko‘proq G‘arb adabiyotshunosligidagi andozalar bo‘yicha o‘rganila boshlandi. Ayniqsa, A.Navoiy yubileylari munosabati bilan ko‘pgina yangi tadqiqotlar yuzaga keldi ...”<sup>13</sup>

Bu davr adabiyotshunosligining eng katta yutug‘i esa adabiyotshunos olim, professor O.Sharafiddinovning shoir hayoti va ijodi tahliliga bag‘ishlangan “Alisher Navoiy” monografiyasi bo‘ldi.

Shoir asarlarini xalq o‘rtasida keng yoyishga kirishildi. 30-40- yillarda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida qator ilmiy-tekshirish ishlari va maqolalar e‘lon

---

<sup>13</sup> A.Хайитметов, Алишер Навоий ижодини ўрганишнинг методологик асослари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти 2001 й. 2 сон 3 б.//

qilindi. Shu jumladan, o'sha vaqtda Navoiy haqida 17 nomzodlik va 2 ta doktorlik dissertatsiyasi yozilib, yoqlandi.

“Alisher Navoiy merosini o'rganish, xususan, uning lirik asarlarini keng kitobxon ommasiga tanishtarish maqsadida “Xazoyin ul maoniy”ning ilmiy-tanqidiy matni eski o'zbek yozuvida tuzilib, akademik nashrga tayyorlashga kirishildi”.<sup>14</sup>

Bu vaqtgacha esa “Xazoyin ul maoniy”ning taxminan to'rttdan bir qismi hajmidagi she'rlari terma devon shaklida ikki marotabagina nashr qilingan. Bu esa Navoiy yaratgan o'zbek tilidagi 3132 she'rdan keng kitobxon ommasiga 736 tasigina ma'lum bo'lib, qolgan 2396 tasi esa hatto o'sha vaqt adabiyotshunoslariga ham ma'lum bo'lmagan degan gap edi.

Navoiy poetik asarlarining qariyb yarmini tashkil qilgan uning o'zbek tilidagi she'rlari matn jihatdan 50-yillargacha biror kishi tomonidan o'rganilmagan.

“Navoiy hayotdan olgan taassurotlarini – shodligi va qayg'usini, hayotining achchiq-chuchugini, orzu-istaklarini lirik she'rlari orqali ifodalanadi”.<sup>15</sup>

1930-yillarda sobiq sovet navoiyshunosligi vujudga keladi. Adabiyotshunoslar va tanqidchilar o'zbek adabiyoti vakillari ijodini o'rganish va yoritish bilan birga, o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotining boyliklarini tekshirish va yoritishda yangi-yangi muvaffaqiyatlarga erisha boshladilar. O'zbek adabiyoti boyliklarini, jumladan, Alisher Navoiyning merosini o'rganishga rus, ozarbayjon, tojik, turkman va boshqa xalqlarning adabiyotshunoslari ham o'z munosib hissalarini qo'shadilar.

1939-yilda yirik adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning “Alisher Navoiy” nomli ilmiy-ommabop asari nashr etiladi. Navoiy yubileyi Komitetning topshirig'i bilan Izzat Sultanov Olim Sharafiddinovning bu kitobini qayta ishlab, o'z tahriri ostida 1948 yilda nashr ettiradi.

## **2. Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek navoiyshunosligi**

1940-yilda nashr etilgan "Rodonachalnik uzbekskoy literaturo" to'plami Ulug' Vatan urushigacha bo'lgan sobiq sovet navoiyshunosliging muhim va katta yutug'i

---

<sup>14</sup> А.Навоий, Хазойин ул маоний, Ўз.Ф.А. нашриёти, 1959 й., 7 б.

<sup>15</sup> Нарзуллаева С., Алишер Навоий ижодий биографиясидан, Тошкент, Фан, 1966 й. 52 б.

bo'ldi. Bu to'plam Hamid Olimjon ("Farhod va Shirin" dostoni), Hodi Zarif ("Ruboiy"), O.Usmonov ("Muhokamat-ul-lug'atayn"), M.Shayxzoda ("Navoiy va bizning zamonamiz") va boshqa olimlarning maqolalarini o'z ichiga oladi. O'sha yili M.Shayxzodaning "Genial shoir" asari nashr etiladi. Adabiyotshunos Vohid Abdullayev Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasini yozadi.

Ittifoq hukumati ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning tug'ilganiga 500 yil to'lishini 1941-yilda keng nishonlash haqida qaror qabul qiladi. O'zbekistonda va butun Ittifoqda yubileyga tayyorgarlik ishlari qizib ketadi. Navoiy asarlari, uning dostonlari, "Xamsa" ning qisqartirilgan varianti (nashrga tayyorlovchi S.Ayniy), "Chor devon", "Muhokamat-ul-lug'atayn", "Mahbub-ul-qulub" va boshqalar nashr etiladi. Navoiy asarlari rus, ukrain, tojik, ozarbayjon, qozoq, turkman va boshqa tillarga tarjima qilina boshlaydi. O'zbekiston, Moskva, Sankt-Peterburg va qardosh respublikalarning olimlari Navoiyning davri, uning hayoti va faoliyati, ilmiy-adabiy merosi va boshqa xalqlarning adabiyotiga ta'siri kabi masalalar bilan keng va muntazam shug'ullana boshladilar. Matbuotda ko'plab maqolalar bosila boshlaydi, gazeta va jurnallar Navoiy asarlaridan namunalar berib, jamoatchilikni Navoiyning ijodiyoti bilan tanishtiradi.

Yozuvchi va san'atkorlar ulug' shoir va mutafakkirning obrazini yaratish ustida ishladilar. Yozuvchi Oybek urush yillarida o'zbek tarixiy romanlarining eng yaxshilaridan birini – "Navoiy" romanini yaratdi.

Ulug' Vatan urushi sobiq sovet xalqining shonli g'alabasi bilan tugadi. Endi kechiktirilgan yubileyini o'tkazish uchun imkoniyat tug'ildi. O'zbek xalqi bilan birgalikda barcha qardosh xalqlar yubileyga qizg'in tayyorlandilar. Navoiy asarlarini ommalashtirish, tarjima qilish, san'at va adabiyotda Navoiy obrazini yaratish va boshqalar bo'yicha katta ishlar qilindi. 1948-yilning may oyida butun mamlakat Navoiy yubileyini nishonladi.

Sadriddin Ayniy nashrga tayyorlagan "Xamsa" ning qisqartirilgan, tuzatishlar kiritilgan varianti ikkinchi marta nashr etildi. Navoiy tanlangan asarlarining 3-tomi bosildi, "Navoiy zamondoshlari", "Bobirnama" (Bobir), "Makorim-ul-axloq"

(Xondamir) kabi asarlar nashr etildi, Navoiy lirikasining namunalari, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" va boshqa dostonlari rus hamda boshqa qardosh xalqlarning tillariga tarjima qilindi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi 1948-yilda Oybek tahriri ostida o'zbek va rus tillarida "Ulug' o'zbek shoiri" nomli ikkita maqolalar to'plamini nashr etdi. Bu to'plamlar Y.G'ulom, R.Nabiyev, M.E.Massonning Navoiy davriga, V.Abdullayev, S.Ayniy, V.Zohidov, H.Zarifov, Oybek va Deych hamda M.Shayxzodaning Navoiyning faoliyati va ijodiyotiga bag'ishlangan maqolalarni o'z ichiga oladi. 1948 yilda Navoiyning hayoti, faoliyati va ijodiyotiga bag'ishlangan uchta monografik asar – O.Sharafiddinovning "Alisher Navoiy. Hayoti va ijodiyoti", Y.E.Bertelsning "Navoiyning ijodiy biografiya tajribasi" va S.Ayniyning "Alisher Navoiy" asarlari bosilib chiqdi. Boshqa qardosh xalqlarning tillarida ham Navoiy haqida maqolalar, kitoblar va to'plamlar yaratildi. Navoiy haqida, bir necha dissertatsiyalar yozildi; V.Zohidovning "Navoiyning dunyoqarashi", A.Sa'diyoning "Navoiy ijodi – o'zbek klassik adabiyotining yuqori bosqichi" nomli doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir. Keyinroq esa H.Sulaymonov "Xazoyin-ul-maoniy" ning ilmiy-tanqidiy mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Yozuvchilar va san'at xodimlari ham Navoiy yubileyini munosib tuhfarlar bilan kutib oladilar. O'zbekiston Davlat nashriyoti 1948-yilda she'r va dostonlardan iborat "Salom, Navoiy" to'plamini bosib chiqardi. Uyg'un bilan Izzat Sulonov "Navoiy" dramasini yaratadilar, shu drama asosida "Navoiy" kinossenariysi yoziladi. Sobiq Sovet xalq artisti Olim Xo'jayev sahnada, O'zbekiston sobiq Sovet xalq artisti Razzoq Hamroyev ekranda zo'r muvaffaqiyat bilan Navoiy obrazini yaratdilar. Rassom Qaydalov Navoiy portretini ishladi, O'zbekiston xalq rassomi Iskandar Ikromov Navoiy asarlarini naqshlar bilan bezadi. Navoiy dostonlari asosida "Farhod va Shirin" muzikali dramasi yangi varianti, "Layli va Majnun" operasi, keyinroq "Mehr va Suhayl" baleti va "Dilorom" operasi yaratildi.

Samarqand Davlat universiteti, O'zbek Davlat opera va balet teatri, O'zbekiston xalq kutubxonasi va yana bir necha madaniy muassasalar, o'quv yurtlari,



kolxozlar Navoiy nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Yubiley kunlarida Toshkentning Navoiy ko‘chasida bu ulug‘ shoir va mutafakkirning muhtasham haykali ochildi.

### **3. 50-80-yillarda o‘zbek navoiyshunosligi.**

Sho‘rolar davri navoiyshunosligi Navoiy faoliyati va merosini yanada chuqurroq o‘rganish va yoritishda yangidan-yangi yutuqlarga erishdi. Navoiy asarlari keng ommalashtirildi, qayta-qayta nashr qilindi va qardosh xalqlar tillariga tarjima etildi. Navoiy haqida yangi-yangi ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratildi. Keyingi yillarda, xususan, Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish sohasida juda katta ishlar qilindi. Navoiyning "Hayrat ul-abror" (S.Mutalliboyev), "Layli va Majnun" (G‘.Karimov), "Sab‘ai sayyor" (P.Shamsiyev), "Mahbub-ul-qulub" (A.N.Qo‘nonov), "Mezon-ul-avzon" (I.Sultonov), "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" (A.Sale) "Xazoyin-ul-maoniy" (H.Sulaymonov) va "Majolis un-nafois" ning (S.G‘aniyeva) ilmiy-tanqidiy matni yaratildi va nashr etildi.

Shuningdek, "Navoiyning lirikasi" (M.Shayxzoda, A.Hayitmetov), "Saddi Iskandariy" dostoni (E.Bertles), "Navoiyda xotin-qizlar obrazi" (Sh.Abdullayeva, S.Nazrullayeva), "Farhod va Shirin" ning xalq varianti" (A.Hayitmetov) "Xamsa talqinlari" (T.Jalolov) nomli va boshqa yangi ilmiy asarlar yaratildi.

1957-yildan boshlab har yili 9- fevralda Navoiyning tug‘ilgan kunini nishonlash maqsadida ilmiy-an‘anaviy anjuman o‘tkazilib, Navoiy merosini o‘rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasalmoqda.

Navoiy merosini o‘rganish va yoritishda o‘zbek adabiyotshunoslari bilan birga rus olimlari hamda H.Orasli, A.Mirzoyev, Y.Ismoilov kabi ozarbayjon, tojik, qozoq va boshqa qardosh xalqlarning olimlari ham unumli ishladilar.

1968-yilning 11-oktabrida Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyi munosabati bilan Moskvada o‘tkazilgan tantanali kechaga Jahon tinchlik komiteti yo‘llagan telegrammada “Jahon madaniyatining eng yaxshi durdonalariga mansub bo‘lgan Alisher Navoiyning qudratli, hayotbaxsh she‘riyati barcha sovet kishilarining, butun taraqqiyparvar insoniyatning boyligi bo‘lib qoldi. Barcha mamlakatlarning xalqlari besh asrdan ziyod vaqt o‘tgandan keyin Alisher Navoiy yubileyini nishonlar ekanlar,

ulug‘ insonparvarning ijodiy merosiga chuqur hurmat-ehtirom bilan qarayotganliklarini bildirmoqdalar. Alisher Navoiyning olijanob g‘oyalari va ilhombaxsh asarlari tinchlik va insoniyat taraqqiyoti uchun kurashdagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam bermoqda”, deyilgan edi.

#### **4. XX asr G‘arb navoiyshunosligi.**

Professor A.A.Semenov 1926-yilda xalq ijodiyotida Navoiy obrazi masalasiga e‘tiborni jalb etib, Navoiy haqidagi hikoyalardan birini ommalashtiradi.<sup>16</sup>

1940-yilda nashr etilgan "Rodonachalnik uzbekskoy literaturo“ to‘plami Ulug‘ Vatan urushigacha bo‘lgan sobiq sovet navoiyshunosliging muhim va katta yutug‘i bo‘ldi. Bu to‘plamda A.Borovkovning "Navoiyning hayoti va ijodiyotini o‘rganish", Ye.E.Bertelsning "Layli va Majnun" va boshqa olimlarning maqolalarini o‘z ichiga oladi.

Biroq Ulug‘ Vatan urushi davrida yubiley kechiktiriladi. Dahshatli urush sharoitida frontdan uzoq O‘zbekistondagina emas, balki Moskvada va qamalda qolgan Sankt-Peterburgda ham Navoiy merosini o‘rganish jadallik bilan davom etdi.

"Sobiq Sovet Ittifoqiga qarshi boshlangan urush, – deydi professor Y.E.Bertels "Navoiy" monografiyasida, – Navoiy yubileyini mo‘ljallanganidek nishonlash imkonini bermadi. Sankt-Peterburglik sharqshunoslar qamal xalqasida qoldilar. Biroq shu og‘ir sharoitda ham ish davom etdi. Men 1941-yilning dekabrda Navoiy ijodiga bag‘ishlangan va dahshatli bombardirovka hamda artilleriya otishmalari ostida o‘tgan yig‘ilishda so‘zga chiqqan edim. Garchi yig‘ilish binoning yuqori qavatida o‘tib, u yer havodan kelayotgan og‘ir zarbalar bilan tebranib tursa ham, yig‘ilish qatnashchilaridan biron kishi zalni tashlab chiqib ketmadi va yig‘ilish oxiriga yetkazildi".

1942-yilda bir qancha Sankt-Peterburglik, moskvalik va kiyevlik sharqshunos olimlar Toshkentga evakuatsiya qilindilar. Ular o‘zbek xalqining aziz mehmoni bo‘ldilar. Bu olimlar o‘zbek adabiyotshunoslari bilan hamkorlikda ish olib bordilar,

---

<sup>16</sup> A.A.Semenov. Persidskaya novella o Mir-Alishere Navoi. Bulliten Sredneaziatskogo Gosudarstvennogo Universiteta, vipusk, 13, 1926.

o‘z ilmiy tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar va yosh olimlarga rahbarlik qildilar. Navoiy merosini o‘rganish ishi qizib ketdi. Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, uning ilmiy va badiiy asarlarini o‘rganish, Navoiy davrini tekshirish va boshqa masalalar bo‘yicha talay ishlar qilindi, bir necha dissertatsiyalar yaratildi.

Navoiyning faoliyati va merosini ilmiy o‘rganish sohasida yangidan-yangi yutuqlarga erishildi. To‘plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar yaratildi. Sobiq Sovet Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti 1941-yilda tayyorlagan "Alisher Navoiy" nomli maqolalar to‘plami 1946-yilda bosilib chiqdi. A.K.Borovkov tahriri ostida chiqqan bu to‘plam A.Y.Yakubovskiyning "Navoiy davrining ijtimoiy va madaniy xususiyatlari", I.Y.Krachkovskiyning "Arab adabiyotidagi Layli va Majnun qissasining ilk tarixi", Y.E.Bertelsning "Navoiy va Nizomiy", A.K.Borovkovning "Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi", shuningdek, A.N.Boldirev, A.A.Semenov, A.M.Belinskiy va S.L.Volinning maqolalaridan iborat.

Rus yozuvchilari va san‘at xodimlari ham Navoiy yubileyini munosib oldilar. Yozuvchi L.Bat "Hayot bo‘stoni" povestini, Vadeskiy "Oddiy inson" romanining birinchi kitobini yozdi.

### **Xulosa**

XX asrdagi navoiyshunoslik o‘z ko‘lamining kengligi va bosib o‘tgan yo‘lining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu o‘ziga xoslik shundan iboratki, XX asrning 20-80 yillarida O‘zbekistonda hamda MDH mamlakatlarida Alisher Navoiy hayoti va merosini o‘rganishda sho‘rolar siyosati o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Shunday bo‘lsa-da, Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini o‘rganish, uning 500 yillik (1948), 525 yillik (1968), 550 yillik (1991) yubileylarini o‘tkazish ; asarlarini (1948 yilda 3 tomlik, 1968 yilda 15 tomlik), ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini («Majolis un- nafaos», «Lison ut-tayr», «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Mezon ul-avzon») nashr etish, doktorlik (A.Sa‘diy, A.Hayitmetov, H.Sulaymon, A.Abdug‘afurov, S.Erkinov, N.Mallayev, M.Hakimov va boshqalar), nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish, turli mavzularda monografiya va ilmiy maqolalar to‘plamlarini nashr etish davom etdi. Bu davrda A.Fitrat, S.Ayniy, O.Sharafiddinov, V.Mahmudiy, Oybek, Vohid Zohidov, Izzat Sulton, Vohid Abdullayev, Maqsud

Shayxzoda, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdugʻafurov, Sodir Erkinov, Saida Narzullayeva, Suyima Gʻaniyeva, Yoqubjon Isʻhoqov (Oʻzbekiston), Ye.E.Bertels, S.N.Ivanov (Rossiya), H.Arasli, J.Nagʻiyeva (Ozarboyjon), A.Mirzoyev, R.Hodizoda (Tojikiston), B.Karriyev (Turkmaniston) kabi yetuk navoiyshunoslar faoliyat koʻrsatdilar. Shuning bilan bir qatorda Turkiya (Ogoh Sirri Levend), Eron (Ali Asgʻar Hikmat, Rukniddin Humoyun Farrux), Afgʻoniston (Muhammad Yaʻqub Juzjoniy) va boshqa mamlakatlarda ham navoiyshunoslar faoliyat koʻrsatib, asarlarini nashr ettirdilar, turli xildagi risolalar, maqolalar toʻplamlarini yaratdilar. Bu davrda mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasini abadiylashtirish sohasida ayrim ishlar amalga oshirildi. Uning nomi bilan teatr (Toshkent), universitet, maydon (Samarqand), kutubxona (Toshkent), koʻcha, xoʻjaliklar ataldi. Uning haqida roman (Oybek «Navoiy»), drama (Uygʻun, Izzat Sulton «Alisher Navoiy»), qissalar (Mirkarim Osim) yaratildi.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. I.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 2000.
2. I.Karimov. Istiqlol va maʼnaviyat. Toshkent, 1994.
3. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Toshkent "Fan" 1978.
4. N.M.Mallayev. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, "Oʻqituvchi". Toshkent, 1976.
5. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, "Fan" Toshkent, 1977.
6. E.Fozilov. Sharqning mashhur filologlari. "Fan" Toshkent, 1971.
7. I.Haqqulov Tasavvuf va sheʼriyat. Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent, 1990.
8. Sh. Shomuhamedov. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. Oʻzadabiynashr. T, 1963.

## 5-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI

1991- yilda O‘zbekiston Respublikasi o‘z milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgach, navoiyshunoslik ham yangi tarixiy davr bosqichiga kirdi. Chunki bu pallada milliy istiqlol g‘oyasi talablari asosida xalq va mamlakat tarixi, qadriyatlari, boy ilmiy-adabiy merosiga xolisona va ilmiy asosda qayta – haqqoniy baho berish, uni ishonchli manbalarga tayanilgan holda o‘rganishga keng yo‘l ochildi. Bu esa Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini chuqur o‘rganish va yoritish yangi ufqlariga zamin hozirladi. Buning natijasi o‘laroq, buyuk allomaning yigirma jildlik, keyinroq o‘n jildlik mukammal asarlar kulliyoti nashri amalga oshirildi, ilgari chop etilmagan „Munojot“, „Siroj ul muslimin“, „Badoye’ ul-bidoya“, „Navodir un-nihoya“ asarlari bosilib chiqdi.

Istiqlolga erishilgan dasblabki davrlardanoq, Navoiy asarlarini chop ettirish, Navoiy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini nashr ettirish keng yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 1991- yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga armug‘on sifatida Aziz Qayumovning shoir hayoti va ijodi to‘g‘risida ilmiy-badiiy tarzda so‘z yurituvchi lavhalardan iborat „Alisher Navoiy“ („Kamalak“ nashriyoti) kitobi chop etiladi.

Mamatqul Jo‘rayev Navoiy haqidagi xalq yaratgan rivoyatlarni to‘plab, Chori Avaz muharrirligida „El desa Navoiyni“ nomi ostida nashr ettiradi. Navoiy tavalludining 550 yilligiga to‘yona sifatida bunyodga kelgan ushbu majmua „Alisher bilan bulbul“ deb nomlangan o‘zbek xalq rivoyatlari, „Hizirjavob Mirali“ deb nomlangan turkman xalq rivoyatlari va Xondamir qalamiga mansub „Makorim ul-axloq“ („Yaxshi xulqlar“) asaridagi hikoyatlarini jamlagan „Saodatli Amirning sifatleri“ deb nomlangan 3 qismdan iborat.

„O‘zbek adabiyoti bo‘stoni“ ruknida A.Qayumov, A.Oripov, A.Hayitmetov, B.Qosimov, X.Sultonov, N.Mallayev, O.Yoqubov, O.Matjon, S.G‘aniyeva va boshqa olimlar tahrirligida Alisher Navoiyning „Xamsa“ dostoni va boshqa asarlarini chop ettirish davom ettirildi.

K.Yashin. E.Yusupov, Uyg'un, I.Sulton, A.Qayumov, B.Nazarov, A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, F.Sulaymonova, M.Hakimovlarning tahririda yigirma tomlik „Mukammal asarlar to'plami“ nihoyasiga yetkazildi. Jumladan, 1991- yilda „Hayrat ul-abror“ (7- tom), „Farhod va Shirin“ (8- tom), 1992- yilda „Layli va Majnun“ (9- tom), „Sab'ayi sayyor“ (10-tom), 1993- yilda „Saddi Iskandariy“ (11- tom), 1996- yilda „Lison ut-tayr“ (12- tom), 1997- yilda „Majolis un-nafois“ (13- tom), 1998- yilda „Mahbub ul-qulub“ (14- tom), 1999- yilda „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti sayyid Hasan Ardasher“, „Haloti Pahlavon Muhammad“, „Nazm ul-javohir“ (15- tom), 2000- yilda „Muhokamat ul-lug'atayn“, „Mezon ul-avzon“, „Tarixi anbiyo va hukamo“, „Tarixi muluki ajam“, „Arba'in“, „Siroj ul-muslimin“, „Munojot“, „Risolayi tiyr andoxtan“ (16- tom), 2001- yilda „Nasoyim ul-muhabbat“ (17- tom), 2002- yilda „Devoni Foniyy“ (18- tom), „Devoni Foniyy“ (davomi) (19- tom), 2003- yilda „Devoni Foniyy“ (davomi), Qasidalar, „Mufradot“, Ilovalar“ (20- tom) chop etiladi.

„Meros“ nashriyotida „Arba'iyin“ (nashrga tayyorlovchilar: Karimbek va Saidbek Hasan, sharhlovchi: Alibek Rustam), G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasida „Munojot“ (nashrga tayyorlovchi va lug'atlar muallifi: Suyima G'ani qizi, xattot: Sayfiddin Raf'iddin) kitoblari nashr etiladi.

1992- yilda G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasida Karimboy Qoramboyevning „Ko'ngul bermish so'zimga“ kitobi nashr etiladi. Kitobda Alisher Navoiy va turkman, qoraqalpoq adabiyotlari o'rtasidagi ta'sir, bu adabiy jarayonning rang-barang qirralari tadqiq va tahlil etilgan. Muallif bu katta badiiy hodisaning muayyan tomoni – Navoiy ijodining ta'siri masalasini batafsil yoritgan.

1993- yilda „O'qituvchi“ nashriyotida Abduqodir Hayitmetovning „Navoiyxonlik suhbatlari“ kitobi chop etildi. Kitobda Alisher Navoiy hayoti, ijodining yangi qirralari, adabiy mahorati va estetik qarashlari bilan bir qatorda shoir ijodining xalqparvarlik, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik mohiyati, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlari yanada chuqurroq tahlil etiladi.

1995- yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida Abdurashid Abdug'afurovning „Buyuk beshlik saboqlari“ ilmiy-adabiy maqolalardan

iborat kitobi chop etiladi. Kitob „Buyuk beshlik saboqlari“, „Topilmagan g‘azallar“, „Kunda yuz bayt“, „Ma‘rifat dengizining duri“, „O‘n birinchi taxmis“, „Alisher Navoiy ijodkor temuriylar haqida“, „Navoiy va Husayniy“, „Navoiy va Bobur“, „Navoiy va Mashrab“, „Navoiy va Furqat“ deb nomlangan maqolalarni o‘z ichiga olgan.

1996- yilda Sultonmurod Olimning „Naqshband va Navoiy“ 1998- yilda A.Abdug‘afurovning „Qalb qa‘ridagi qadriyatlar“ kitoblari chop etiladi.

2001- yilda „Ma‘naviyat“ nashriyotida chop etilgan „So‘z mulkinging sultoni“ kitobi Navoiy ixlosmandlari uchun o‘ziga xos tuhfa bo‘ldi. Kitobda Sharofiddin Sharipovning „Navoiy Samarqandda“, Chori Avazning „Fuqaroning taxtsiz podshohi“, Shuxrat Rizayevning „Iskandar“, Abdulla A‘zamovning „Dugohi Husayniy“ deb nomlangan sahna asarlari joy olgan.

2007- yili „Fan“ nashriyotida „Shohbaytlar“ (to‘plovchi, nasriy bayon va so‘zboshi muallifi Ibrohim Haqqul) deb nomlangan shu yo‘lanishdagi birinchi kitob chop etiladi. Atoqli navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulning shu yili nashr etilgan „Navoiyga qaytish“ kitobi o‘zbek navoiyshunosligi fanining yana bir yutug‘i bo‘ldi. 2008- yilda „Ma‘naviyat“ nashriyotida chop etilgan „Meros va mohiyat“ kitobida esa, Alisher Navoiy ijodi, shaxsiga bag‘ishlangan, chuqur mushohadalar aks etgan maqolalarni ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, bu jihatdan „Navoiyni anglash mashaqqati“ hamda „Navoiyshunos qotili kim?“ maqolalari xarakterlidir.

A.Qayumovning 2008- yilda „Hayrat ul-abror talqini“, „Farhod va Shirin sirlari“(Asarlar. 1- jild, 1-kitob). „Ishq vodiysi chechaklari“, „Layli va Majnun“, „Yetti sayohatchi“, „Sadi Iskandariy“ (Asarlar. 1- jild, 2-kitob), „Navoiyning „Qush tili“ dostoni“, „Go‘zalliklar va nodirliklar“(Asarlar. 2- jild), 2009- yilda „Xamsa“ lavhalari“, „Bodoye’ ul-vasat“, „Navoiyning hayot va ijod yo‘li“ (Asarlar. 3- jild) kitoblari „Mumtoz so‘z“ nashriyotida chop etiladi.

2009- yilda „Yangi asr avlodi“ nashriyotida „Xamsa“ dostonlarining ixcham nasriy bayonlari (qisqartirib nashrga tayyorlovchi: Anvar Hojiahmedov) chop etiladi. Bunday tadqiqotlar esa Navoiy ixlosmandlarining buyuk daho ijodiga yanada chuqurroq kirib borishlariga zamin yaratadi.

2011- yilda e'lon qilingan Umid Bekmuhammadning „Navoiy armonlari“ kitobida shoir hayoti, ijodi bilan bog'liq qiziqarli lavhalar berilgan.

Bundan tashqari „Tasavvuf“ (1-2- kitob. Komilov N. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991), „Navoiy poetikasi“ (Is'hoqov Y. –T.: „Fan“, 1991), „Ikki olam yog'dusi“ (Muhiddinov M. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991), „Navoiy dastxati“ (Navodir un-nihoya. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi muallifi S.G'aniyeva. – T.: „Fan“, 1991), „Ishq, oshiq va ma'shuq“ (Olim S. –T.: „Fan“, 1992), „Navoiyning ijod olami“ (-T.: „Fan“, 2001), „Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti“ (Is'hoqov Y. –T.: Abdulla Qoditdiy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002), „Adiblar odobidan adablar“ (Rustamov A. – T.: 2003), „Jomiy va o'zbek adabiyoti“ (Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –T.: „Movarounnahr“, 2005), „Til va el“ (Qodirov P. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005), „So'z san'ati so'zligi“ (Is'hoqov Y. –T.: „Zarqalam“, 2006), „Navoiy shohbaytlari“ (Akramov B. –T.: „Yangi asr avlodi“, 2007), „Husni ta'lil san'ati“ (Hojiahmedov A. –T.: „Yangi asr avlodi“, 2008), „Navoiy va yoshlar tarbiyasi“ (Nashrga tayyorlovchi D.To'xliyeva. –T.: TDPU, 2010) singari ilmiy tadqiqotlarda Navoiy ijodi, faoliyati keng qavrovda o'rganildi.

Mustaqillik yillarda Alisher Navoiy merosining kam o'rganilgan qirralari keng tekshirilib, bu sohada anchagina ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar yaratildiki, bunda adabiyotshunoslardan N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov, S.Olimov, N.Jumayev, S.G'anieva, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, D.Salohiy va boshqalarning munosib hissalari bor.

Hozirgi paytda navoiyshunoslikda yana shunday an'ana paydo bo'ldiki, muntazam shoir ijodiyotidan fikr yurituvchi, muammoli sahifalarini ochishga xizmat qiluvchi turli navoiyshunoslar maqolalari to'planib, kitob holida nashr etila boshlandi. Jumladan, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida chop etilgan „**Navoiyga armug'on**“ deb nomlangan majmua uch marta nashrdan chiqdi. Unda Navoiy lirikasiga doir turli qorong'u masalalarni oydinlashtiruvchi maqolalar o'z aksini topgan.



„**Navoiy va ijod saboqlari**“ to‘plami ham navoiyshunos olimlar Navoiy ijodidan, xususan, lirikasidan qilgan tadqiqotlari natijasida yuzaga kelgan.

Bulardan tashqari Navoiy lirikasi bo‘yicha har xil **jurnal va to‘plamlarda** navoiyshunos olimlarning g‘azal, ruboiy, tuyuq kabi janrlari tadqiqi ham ko‘plab uchramoqda. Masalan, „Qaro ko‘zim“, „Kelmadi“, „O‘n sakiz ming olam“, „Orazih yopqach...“ g‘azallari, „Fido“, „G‘urbat“, „Ey umri aziz“ kabi ruboiylari adabiyotshunoslikda ko‘pgina bahslarga sabab bo‘lgan, har xil navoiyshunoslar o‘z nuqtayi nazaridan fikr bildirganlar. Bu kabi **maqolalar** bir tomondan navoiyshunoslarning shoir ijodiyotiga munosabati, adabiy merosga bo‘lgan katta qiziqish va e‘tibor bilan ilmiy-tekshirish ishlarini olib borganlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, bu obida, xazina sarhadlari benihoyat kengligi, uning yechilmagan, lekin hal etilishi zarur va foydali bo‘lgan masalalari ham ko‘p ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqillik davrida Toshkent va Navoiy shaharlarida Alisher Navoiyga bag‘ishlangan muhtasham yodgorliklar maydonga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tmishni, fanlar tarixi, adabiy merosni o‘rganishga jiddiy etibor qaratildi. Milliy o‘zlikni anglash, milliy mafkura, ma‘naviyat, ma‘rifat kabilar Davlat dasturidagi dolzarb masalalar sirasidan ustuvor yo‘nalish sifatida joy oldi. Shu jihatdan mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning hozirjavoblik va donolik bilan aytgan quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi: „**Biz ma‘naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘shidan, xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon hisoblaymiz**“<sup>17</sup>.

Hozirgi kunda – Alisher Navoiy hayoti va xususan, ko‘pqirrali merosini o‘rganishda shoir va nosir badiiy mahorati, poetik olamining ko‘lami va mohiyatini kashf etish, ularni keng kitobxonlarga tushunarli tarzda sharh va talqin qilish hamda istiqloq ma‘naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini belgilash asosiy tamoyil darajasiga ko‘tarilayozdi.

#### ALISHER NAVOIY NOMI BILAN:

---

<sup>17</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997, 137- bet.

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti;
- Milliy bog‘;
- Samarqand davlat universiteti;
- Davlat kutubxonasi;
- Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti;
- Adabiyot muzeyi;
- Katta akademik teatr;
- San‘at saroyi;
- Metro bekati;
- Viloyat, shahar, o‘nlab tuman, ko‘cha va jamoa xo‘jaliklari yuritib kelinadi.